

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA**

**Pedagogik fanlarni o'qitishning  
innovatsion muhitini loyihalashtirish**

**MODULI BO'YICHA**

## **O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT-2022**



**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchilar:** **Sh.A. Abdullayeva**-pedagogika fanlari doktori, professor.  
**M.H.Usmonboyeva**-pedagogika fanlari nomzodi.  
**A.B.To'rayev**-katta o'qituvchi

**Taqrizchilar:** p.f.f.d (PhD). F.Mirzayeva - TDPU, "Pedagogika" kafedrasini mudiri.

**Xorijiy ekspert:** p.f.d., professor N.L.Shexovskaya - Belgorod davlat universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini mudiri

**O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**



## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>10</b>
<b>III. NAZARIY MA'LUMOTLAR MAZMUNI.....</b>	<b>15</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>74</b>
<b>V. GLOSSARIY.....</b>	<b>91</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>96</b>



## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori, 2020 yil 30 sentyabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "O'qituvchi va murabbiylar–yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" nomli nutqi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda o'quv-metodik majmuada tinglovchilarning modul doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mo'ljallangan.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** pedagog kadrlarga ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratishning maqsadi, vazifalari, muammolari, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish kompetentligini oshirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan



kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirish.

### **Modulning vazifalari:**

- oliy ta'lim pedagogikasi sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

- "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash;

- zamonaviy didaktik metodlar, vositalarni chuqur o'zlashtirish asosida pedagogik jarayonlarni tashkil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

"Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish" o'quv moduli bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish muammolarini;
- pedagoglarning kreativlik sifatlari va uni rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlarini;

- pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyatini;

- o'quv didaktik va metodik ta'minot: tuzilishi va tarkibiy qismlari **bilishi** kerak.

#### **Tinglovchi:**

- nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralashda kreativ yondashish;

- o'quv axborot (ma'lumot)larini samarali izlash;

- mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi zarur.

#### **Tinglovchi:**

- zamonaviy talablar asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash;

- talabalarning mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;

- didaktik tizimlar asosida pedagogik jarayon ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablarni tahlil qilish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

#### **Tinglovchi:**

- ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish;

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishda vitagen tajribalardan foydalanish;

- talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash **kompetensiyasiga** ega bo'lishi lozim.





**Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blis-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

**Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Oliy ta'lim didaktikasi”, “Kreativ pedagogika asoslari”, “Pedagogning mahorati va kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish uning dolzarb muammolari, ularni yechimini topishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot metodlarini tahlil etish va amaliyotda qo'llash malakalari, pedagogik kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyatga ega bo'ladi.

**MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI**

	Modul mazmuni	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan	
			Nazariy	Amaliy
1.	Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish muammolari	2	2	
2.	Pedagoglarning kreativlik sifatleri. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari	2	2	
3.	Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati	2	2	
4.	O'quv didaktik va metodik ta'minot: tuzilishi va tarkibiy qismlari	2	2	2
5.	Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralashda kreativ yondashuvning ahamiyati.	2		2
6.	O'quv axborot (ma'lumot)larini samarali izlash - pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini ko'rsatuvchi muhim holat ekanligi	2		2



7.	Mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish mezonlari	2		2
8.	Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar	2		2
9.	Talabalarning mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish texnologiyalari	2		2
10.	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishda vitagen tajribalardan foydalanish	2		2
11.	Talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash	2		2
<b>Jami:</b>		<b>22</b>	<b>8</b>	<b>14</b>

### **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-MAVZU: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION MUHITNI YARATISH MUAMMOLARI.**

Pedagogik jarayonda innovatsion muhitni tashkil etishning mohiyati. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari.

#### **2-MAVZU: PEDAGOGLARNING KREATIVLIK SIFATLARI. PEDAGOGLARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI VA SHARTLARI**

Pedagoglarning kreativlik sifatlari. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, tamoyillar, malakalar, darajalar va sifatlar.

#### **3-MAVZU: PEDAGOGLARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MOHIYATI**

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo'l va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

#### **4-MAVZU: O'QUV DIDAKTIK VA METODIK TA'MINOT: TUZILISHI VA TARKIBIY QISMLARI**

“Didaktik ta'minot” tushunchasi va uning metodik ta'minot tushunchasi bilan aloqadorligi. Didaktik ta'minotning tuzilishi va tarkibiy qismlari. O'quv



dasturlarini yaratishga kreativ yondashish. Kreativ yondashuv - o'quv manbalari (ma'ruza matni, o'quv darsligi, o'quv va metodik qo'llanma hamda o'quv metodik majmualar)ni samarali yaratishning muhim omili.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-AMALIY MASHG'ULOT.**

#### **MAVZU: NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLARNI TO'PLASH VA ULARNI SARALASHDA KREATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI.**

Pedagogning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar to'plash. To'plangan o'quv materiallarini saralashda uning kreativligi.

### **2-AMALIY MASHG'ULOT.**

#### **MAVZU: O'QUV AXBOROT (MA'LUMOT)LARINI SAMARALI IZLASH PEDAGOGNING KREATIVLIK SIFATLARIGA EGALIGINI KO'RSATUVCHI MUHIM HOLAT EKANLIGI.**

O'quv axborotlarni ishlashda ilmiy-pedagogik manbalar bilan ishlash. Global internet tarmog'idan fanga oid saytlarni qidirishda uning kreativligi va ijodkorligi.

### **3-AMALIY MASHG'ULOT**

#### **MAVZU: MAVZU MOHIYATIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA TO'LIQ, G'OYAVIY MAZMUN VA ILMIY ASOSLARGA EGA, AMALIY QIYMATGA EGA O'QUV MATERIALINI TAYYORLAY OLIISH MEZONLARI.**

O'rganilayotgan o'quv materialini mavzusidan kelib chiqqan holda g'oyaviy mazmunini ajratish. Ilmiy pedagogik asoslarga ega amaliy qiymatini aniqlash mezonlari ishlab chiqish.

### **4-AMALIY MASHG'ULOT**

#### **MAVZU: NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN DIDAKTIK ISHLANMALAR TAYYORLASHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR.**

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik materiallar tayyorlashga qo'yiladigan talablarni aniqlash. Zamonaviy talablar asosida o'quv-tarbiya jarayonini loyihalash.





### **5-AMALIY MASHG'ULOT.**

**MAVZU: TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMI VA IJODIY IZLANISHLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.**

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va loyihalashtirish. Kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'lim shakllari, metod va vositalarini tanlash.

### **6-AMALIY MASHG'ULOT**

**MAVZU: BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI ORTTIRISHDA VITAGEN TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.**

Talabalarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirishda o'qituvchining hayotiy, ijodiy tajribalaridan foydalanish metodikasi.

### **7-AMALIY MASHG'ULOT:**

**MAVZU: TALABALARNING O'ZLASHTIRGAN BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH.**

Talabalarning o'zlashtirish darajalarini nazorat qilish. Amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish.




## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilidagi “interact” (rus tilida “interaktiv” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy nuqtai nazardan “inter”– o‘zaro, ikki taraflama, “act”– harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma‘nolarni anglatadi.

“Interfaol ta‘lim”–ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta‘lim.

Interfaollik– ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga ega ekanliklaridir.

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning tadqiqotiga qaraganda, shaxsning tabiiy fiziologik, psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Shaxs manba‘ni o‘zi o‘qiganda 10%; ma‘lumotni eshitganida 20%; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganda (illyustratsiya) 30%; odir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risida ma‘lumotni eshitganida (demonstratsiya) 50%; ma‘lumot (axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida ) 80%; o‘zlashtirilgan bilim (ma‘lumot, axborot)larni o‘z faoliyatiga tadbiiq etganida 90% hajmdagi ma‘lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega ekan (*1-rasm*).



*1-rasm. Ta‘lim metodlarining ierarxik piramidasi*

An‘anaviy ta‘lim berishdan farqli o‘laroq, interfaol o‘qitish “ta‘lim jarayonining asosiy ishtirokchilari-o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan xamkorlik, qizg‘in baxs-munozara, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, ularning o‘zaro bir-birlarini xurmat qilishlari,



tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlarikabilar bilan tavsiflanadi"<sup>1</sup>

Interfaol ta'limda suhbat quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi (2-rasm):



**2-rasm. Interfaol ta'limda tashkil etiladigan suhbat (dialog)**

Interfaol ta'lim mohiyatiga ko'ra suhbatning "talaba – axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi. O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqq olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol ta'limni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi. O'quv jarayonining interfaol ta'limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi<sup>2</sup>.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi<sup>3</sup>.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni *Blum*

<sup>1</sup> Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob: Metodik qo'llanma.–Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.–B122.

<sup>2</sup>Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. -108 b. – B. 5.

<sup>3</sup>Muslimov N., Usmonboeva M., MirsolievaM. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. O'quv uslubiy majmua. - Toshkent, 2016. - B. 70-71.



*taksonomiyasi* deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi *bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash* darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

*Bilish* dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

*Tushunish* darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

*Qo'llash* darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

*Tahlil* darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

*Umumlashtirish* darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

*Baholash* darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Bunda an'anaviy hamda interfaol dars orasidagi farqlarni bilish kerak (1-jadval).



An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

№	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1.	<b>Qo'llanish darajasi</b>	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2.	<b>Dars maqsadi</b>	Dars bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish
3.	<b>O'qituvchining vazifalari va ish usullari</b>	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish
4.	<b>Darsga tayyorgarlikka talablar</b>	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash
5.	<b>O'quvchilar tayyorgarligiga talablar</b>	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish
6.	<b>O'quvchining vazifalari va ish usullari</b>	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7.	<b>Vaqt taqsimoti</b>	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi
8.	<b>Darsning modul va algoritmi</b>	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi
9.	<b>O'quvchilar ning faollik darajasi</b>	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi
10.	<b>Kutiladigan natija</b>	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish





Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.



### III. NAZARIY MA'LUMOTLAR MAZMUNI

#### 1-Mavzu: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION MUHITNI YARATISH MUAMMOLARI.

##### Reja:

1. Pedagogik jarayonda innovatsion muhitni tashkil etishning mohiyati.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari
3. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari.

**Tayanch tushunchalar:** *modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologiyalashtirish, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, innovatsiya, novatsiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion jarayon, ta'limiy innovatsion jarayon, ta'limiy innovatsion jarayon bosqichlari.*

##### 1. Pedagogik jarayonda innovatsion muhitni tashkil etishning mohiyati.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

##### Innovatsion ta'lim muhiti-pedagogik jarayonda zamonaviy fan va texnika



*yutuqlariga asoslangan va kasbiy sohada kreativ (ijodiy) qaror qabul qila oladigan shaxs(talaba)ni shakllantirishga qaratilgan o'qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari majmuidir.*

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub'ektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik



mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi.

Xususiy yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

Mahalliy yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Shartli yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi. Rossiyalik olimlar – A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va b. esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan. Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi ikki yondashuv mavjud ekanligini e'tirof etadi:

1) yangilikning individual mikro darajasi (unga ko'ra qandayir yangi g'oyaga amaliyotga joriy etiladi);

2) alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirlanishi, birligi, raqobati va birining o'rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).

A.I.Prigojin, B.V.Sazonov va V.S.Tolstoylar o'z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli konsepsiyani asoslashga uringan. Bu o'rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko'rsatishadi:

1. Yangilik sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarni ishlab chiqish (m: korxonada, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

2. Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko'lamda ishlab chiqish.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

**1. Gnostik-dinamik yondashuv** (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

**2. Individual faoliyatli yondashuv** (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).



**3. Ko'p sub'ektkli (dialogik) yondashuv** (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

**4. Insonparvarlik yondashuvi** (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

**5. Individual-ijodiy yondashuv** (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

**Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarini yechishga qaratilgan faoliyat

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

M.Jumaniyozovanning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi **belgilar** asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

V.Slasteninining fikriga ko'ra innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo'lishni ifodalaydi:


- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga



texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;

- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyati

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kechadi. Ular (1-rasm):



**1-rasm. Innovatsiyalarni asoslash bosqichlari**

R.N.Yusufbekova pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzilmasi

1. Sohada namoyon bo'layotgan yangilikni ajratib ko'rsatuvchi blok (unda pedagogikadagi yangi g'oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me'yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o'zlashtirish va unan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari, an'analari va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi).

2. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o'zlashtirilishi va baholanishi ifodalovchi blok (unda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o'zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi).

3. Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish bloki (unda yangilikni amaliyotga tadbiiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro'y beradi).


Bu o'rinda M.M.Potashnik tomonidan e'tirof etilgan innovatsiya jarayonlar mohiyatini ifodalovchi talqin alohida ahamiyatli ekanligini ko'rsatish o'tish maqsadga muvofiqdir. Mazkur talqinga ko'ra innovatsion jarayon quyidagi tuzilmalarga ega (2-rasm):





2-rasm. Innovatsion jarayon tuzilmalari

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo'ysunadi. Mazkur jarayon uchun quyidagi to'rtta qonuniyat xarakterli sanaladi (3-rasm):



3-rasm. Pedagogik innovatsion jarayon qonuniyatlari

Keskin beqarorlik qonuniyatiga ko'ra pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar o'zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e'tirof etiladi.

Amalga oshish qonuniyati yangilikning hayotiyligini ifodalaydi, unga ko'ra yangi pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o'ta tezkor yoki tezkor ravisha amaliyotga tatbiq etiladi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'lida faollik ko'rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab



innovatsion xarakter kasb etgan g'oyalar yanada ilg'or yangiliklarni amalga oshirish yo'lida to'siq bo'la boshlaydi.


Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Odatda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi:

1. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.


2. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilardir (4-rasm):



4-rasm. Innovatsiyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etish bosqichlari

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya'ni (5-rasm):



5-rasm. Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari



Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifati ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

**2. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.** Lug'aviy jihatdan **"innovatsiya"** tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (**"innovation"**) **"yangilik kiritish"** degan ma'noni anglatadi. **"Innovatsiya"** tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

**Innovatsiya** – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: **"Innovatsiya (ingl. "innovations" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi"**<sup>4</sup>.

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi

<sup>4</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.

innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.


**Innovatsion ta'lim** (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular (6-rasm):



**6-rasm. Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari**

**ko'rinishlari** sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;



- ilg'or ish uslublari.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u **novatsiya (yangilanish)** deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u **innovatsiya (yangilik kiritish)** deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mohiyatiga ko'ra novatsiya va innovatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir (1-jadval):

**1-jadval. Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar**

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi;	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;
2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi;	2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;
3) metodlar yangilanadi;	3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi;
4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	4) yangi texnologiyalar yaratiladi;
	5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;
	6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

I.P.Podlasnyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari quyidagi **o'zgarishlarga** olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- talaba (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;






- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi.

**3. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari.** Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan islohotning muhim yo'nalishi sifatida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan e'tirof etildi. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish quyidagi shartlar asosida ta'minlandi.

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishi bo'lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (7-rasm):



**7-rasm. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari**

Pedagogik vazifaning hal etilishiga o'qituvchi va talaba faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni, ta'lim jarayonini texnologik strukturasi muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv kursini o'rganish alohida mavzu va bo'limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi.

**Ta'lim jarayonini loyihalash** – pedagogik faoliyat ko'rinishi bo'lib, u ta'lim jarayonining texnologik tuzilma hamda o'qitish natijasini kafolatlovchi metod va vositalar yig'indisiga egaligi bilan tavsiflanadi.

Loyihalash mahsuli ta'lim jarayonining loyihasi sanaladi.

Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratildi. Ular:



1) ta'lim jarayonining loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhit)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi;

2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (o'qituvchi va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni, shuningdek, barcha omillar samaradorligiga bog'liq.


Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini loyihalash ikki darajada:

a) o'qituvchi faoliyati darajasida (ta'lim jarayonining alohida qismlarini loyihalash);

b) ta'lim menedjeri faoliyati darajasida (ta'lim jarayonini yaxlit loyihalash) amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi hamda loyihalash qonuniyatlari loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi.

Mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat (8-rasm):



**8-rasm. Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari**

**1. Markazlashtirish tamoyili** texnologik jarayonda talabalar faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va talaba faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini talabalarning ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiy ta'lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan umumiy o'rta ta'lim mazmunini tashkil etuvchi har bir unsur (element) sub'ekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Sub'ekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellari orqali ifodalanishi zarur.



Talabalar faoliyati modeli tizimlashtiriluvchi element bo'lib, talabaning yaxlit faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi.

Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni talab etadi: faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar), o'quv faoliyatini boshqarish usullari (o'qituvchi faoliyati)ni asoslash.

**2. Refleksivlik tamoyili** sub'ektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o'qituvchiga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, talabalarning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to'ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayonining loyihasini ta'lim jarayoni ishtirokchisi – sub'ektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to'ldirib borishni talab etadi.

**3. Natijaviylik tamoyili** pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik- ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish uslublarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda sub'ektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

**4. Ko'p omillilik tamoyili.** Har bir ta'lim jarayoni bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o'qituvchi va talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o'quv muassasasining o'quv-moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta'lim muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy-psixologik muhit, talabalarning o'quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

**5. Talaba shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili.** Bola maktab ostonasiga qadam qo'yganidan boshlab uning faoliyat ko'lami (o'z-o'ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko'nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo'lib boradi. Shuning uchun ta'lim jarayonining samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni talabalar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta'minlanishi zarur.

Ayni vaqtda umumiy ta'lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlarga muvofiq psixolog va sotsiologlarning ishtiroklari (psixopedagogik tashxis xulosasi) asosida amalga oshiriladi.

**6. Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili.** Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, talabalarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi.



Tamoyilning mazmuni ta'limni ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Loyihalashda talabani o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni, ta'lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi.

**Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish** – aniq maqsad va ijtimoiy g'oyaga asoslanib, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi.



Ta'lim jarayonidan farqli tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, talaba va o'qituvchi o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar

tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi.

Zamonaviy sharoitda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'tkazilishiga rasmiyatchilik nuqtai nazardan voz kechish maqsadga muvofiq. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub'ektlari bo'lgan talabalar faol ishtirokchi, tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadi. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan:

1) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi;

2) talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi;

3) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligi haqida emas, balki sinfning ta'lim muassasasi jamoasi oldida “soxta obro” orttirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to'g'risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- tadbir mavzusi va g'oyasini talabalar tomonidan bildirilgan shaxsiy tashabbuslar, ularning xohish-istaklariga ko'ra belgilash;

- tadbir ssenariysini ishlab chiqishda talabalarining mustaqil faoliyat



yuritishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- tadbir mazmunida o'z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki talabalarning layoqati, qobiliyati, shuningdek, qiziqishlarini inobatga olish asosida taqsimlanishiga erishish;

- tadbirning tashkil etilishi va o'tkazilishida o'qituvchining roli buyruq berishdan iborat bo'lmay, aksincha, talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning faoliyatini yo'naltirib turish hamda zarur o'rinlarda maslahat berish sifatida aks etishiga erishish;

- tadbir maqsadining natijalanganligini sinf, guruh talabalarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish.

Muhokama jarayonida o'qituvchi tomonidan turli tanbehlarning berilishiga yo'l qo'ymaslik, aksincha yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning talabalarining o'zlari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbirni o'tkazish jarayonida ularning takrorlanishini oldini olish) yo'lida chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv mohiyati talabalar mustaqilligini ta'minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e'tiborni qaratishni ham taqozo etadi:

- talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga
- nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag'batning mavjudligi;
- talabalarining tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari;
- tadbir g'oyasining talabalar ichki ehtiyojlariga mos kelishi

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

- 1) tadbir mavzusiga doir materiallarni yig'ish;
- 2) tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;
- 3) tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
- 4) tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
- 5) tadbirni tashkil etish va o'tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;
- 6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;
- 7) talabalar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (ularni bu haqida xabardor qilmasdan) baholash;
- 8) loyihani amaliy faoliyatda qo'llash;
- 9) tadbirni tashkil etish jarayoni;
- 10) tadbirning o'tkazilish holati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish

### **Nazorat savollari:**

1. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish qanday bosqichlarda kechadi?
2. "Ta'lim jarayonini loyihalash" deganda nimani tushunasiz?
3. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish nima?
4. Innovatsiya nima?
5. Ta'lim innovatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
6. Ta'lim innovatsiyalarining qanay turlari mavjud?





7. Novatsiya va innovatsiyaning asosiy farqlari nimalarda ko'rinadi?
8. Innovatsion jarayonlar qanday yondashuvlar asosida tashkil etiladi?
9. Innovatsion faoliyat nima va unga qanday belgilar xos?
10. Innovatsion jarayon qanday tuzilmalarga ega?
11. Innovatsiya jarayon qanday qonuniyatlarga bo'ysunadi?
12. Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish qanday bosqichlarda kechadi?

## **2-MAVZU: PEDAGOGLARNING KREATIVLIK SIFATLARI. PEDAGOGLARDA KREATIVLIK SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI VA SHARTLARI**

Reja:

1. Pedagoglarning kreativlik sifatleri. Pedagoglarda kreativlik sifatlerini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari.
2. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar.
3. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, tamoyillar, malakalar, darajalar va sifatlar.

**Tayanch tushunchalar:** *sifat, kreativlik sifatleri, malaka, ijodiy faoliyatni malakalari, kreativ sifatleri rivojlantirish yo'llari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari, pedagoglarning kreativlik imkoniyatining muhim darajalari, shaxsning kreativligi darajasini aniqlovchi mezonlar.*



**Pedagoglarning kreativlik sifatleri. Pedagoglarda kreativlik sifatlerini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari.**

Sifat tushunchasi o'zbek milliy ensiklopediyasida falsafiy kateqoriya sifatida quyidagicha izohlangan.

*“Sifat - ob'ektning muhim belgilarini ifodalaydigan falsafiy tushuncha. Sifat ob'ekt tarkibiy qismlarining o'zaro turg'un munosabatlarini aks ettiradi, bu munosabatlar bir ob'ektni ikkinchi ob'ektdan ajratib turadigan o'ziga xos tomonlarini anglatadi...”*. (O'zbek milliy ensiklopediyasi 429 b.).

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi pedagogning kreativlik sifatleri birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, pedagogning kasbiy faoliyatida kreativlik sifatleri qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda kreativlik sifatleri insonning bolalik davridan, ya'ni ularning o'yin faoliyatlarida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat istiqbolda ularning ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Shu bosidan ham ta'lim-tarbiya jarayonida (uzluksiz ta'lim tizimida) bolalarda kreativlik sifatlerini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:



1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Pedagogika-psixologiya bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning fikricha pedagogik tafakkurga ega bo'lish uchun talabalar pedagogika oid bilimlarni puxta o'rganish asosida quyidagi ko'nikma, malakalarni o'zlashtira olishlari zarur deb hisoblaydi: pedagogikaning asosiy g'oyalari, konsepsiyalari, qonuniyatlarini va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogik faktlarni bilish; ta'lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;

2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilar:

- Shaxsning hayotiy tajribasi va shaxsiy sifatlarini aniqlovchi testlar;
- Ijodiy tafakkur va uning natijalari (tezkorlik, samaradorlik, mahsuldorlik va b.)ni aniqlovchi testlar.


Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin pedagogik shart-sharoit, ya'ni innovatsion ta'lim muhitini yaratish lozim. Innovatsion ta'lim muhitida ta'lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ tafakkurga ega bo'lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik darajada yaratilganligiga bog'liq. To'laqonli kreativlik xarakteriga ega innovatsion ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga tayanadi. O'qituvchilar agarda innovatsion o'qitish metod va strategiyalarini qo'llash (ya'ni keng ko'lamda o'ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish)da katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni talabalar ongiga singdirishlari va o'z vazifalarini sidqidildan bajarishlari lozim.

Kreativ tafakkurga ega talabalar: boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi; o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi; ba'zan mavzu aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar beradi; yechimi ochiq qolgan vazifalardan




zavqlanadi; g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi; muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

Shaxsga xos kreativlik sifatleri quyidagilar sanaladi (1-rasm):



Pedagoglar kreativlik sifatleri bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo'lishlari zarur:



Quyida ushbu malakalar guruhlarining mohiyati yoritiladi:

**Bilishga oid (gnostik) malakalar:**

- talabalarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini inobatga olgan holda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;



- zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;
- ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;
- talabalar tomonidan o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o'zlashtirganlik natijalarini, o'quvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;
- talabalarning bilishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo'yicha turli ko'rinishdagi ishlarni olib borish;
- darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to'garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- talabalar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;
- talabalarda sog'lom turmush kechirishga bo'lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko'nikmalarini,
  - birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini shakllantirish;
  - ta'lim jarayonida turli ko'rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish;
  - didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqish;
  - ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o'ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalarga o'rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilish;
  - o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish.

### **Loyihalash malakalari:**

- dars yoki tarbiyaviy tadbirlarning loyihalarini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini bosqichma-bosqich yoritish;
- ta'limiy yoki tarbiyaviy faoliyat maqsadini aniq belgilash;
- maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlash;
- o'quv materialining didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini bayon etish;
- o'quv yoki tarbiyaviy xarakterdagi material mazmunini shakllantirish;
- o'quv yoki tarbiyaviy material mazmunini ochib beradigan bir qancha ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro izchillikni ta'minlash;
- talabalarni mustaqil fikrlashga rag'batlantiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- dars yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida bajariladigan pedagogik topshiriqlar tizimini aniqlash;
- yangi materialni bayon etishda turli zamonaviy yondashuvlarni qo'llash;
- muayyan izchillikka ega test topshiriqlarini ishlab chiqish;
- talabalarning bilim darajasini tashxislash jarayonini asoslash;
- talabalar jamoasi hamda alohida talabaning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholash mexanizmini yaratish.



## **Ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar:**

- alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;
- o'quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;
- o'ziga xos, original o'quv materialini tayyorlash;
- mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;
- o'quv mashg'uloti (dars) va tarbiya tadbiri uchun ko'rsatmali qurollar to'plamini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun multimediya materiallarini yaratish;
- o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;
- turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun talabalarning faol ishtirokida video roliklar yaratish;
- dars konspektini tayyorlash;
- turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test),
- baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish.

## **Tadqiqotchilik malakalari:**

- ilmiy izlanish olib borish metod va vositalarini tanlash;
- manbalar bilan ishlash (nazariy tahlil, muhim ma'lumotni topish, tezis, konspekt, referat, kartoteka bilan ishlash,
- adabiyotlar ro'yxatini tuzish);
- nashr manbalari va axborot texnologiyalari
- (Internet) materiallari bilan tanishish;
- anketa so'rovini tashkil etish;
- zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash, dolzarbligini asoslash;
- mavjud manbalar asosida muammoning
- ishlanganlik darajasini o'rganish;
- pedagogik tajriba olib borish metodikasini ishlab chiqish;
- uch (yoki to'rt) bosqichli pedagogik tajribani
- ilmiy-metodik tashkil etish;
- ilmiy maqola, axborot va hisobot tayyorlash;
- ilmiy maqolalarni nashrga tayyorlash;
- pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish;
- tahlil natijalarini matematik-statistik tahlil qilish;
- statistik tahlil natijalariga ko'ra xulosa chiqarish va ilmiy-tavsiyalarni ilgari surish;
- pedagogik tajriba natijalarini muhokama qilish (savollar qo'yish, shaxsiy fikrni bildirish, tanqidiy fikrlarni ayta olish, amaliy takliflar berish).





## **Muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari:**

- talabalar, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl, metodlardan foydalanish;
- pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabat o'rnatish;
- talabalarga ma'lumotlarni yetkazishning samarali yo'l va vositalarini topish;
- topshiriqlar yuzasidan talabaning javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish;
- pedagogik jarayonlarda yuzaga keladigan nizolarning oldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;
- jamoa va turli bosqichdagi talabalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash;
- jamoada sog'lom raqobatga asoslangan muhitni qaror toptirish;
- talabalarning faoliyatlarini rag'batlantirish;
- talaba javobidagi xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish;
- talabalar bilan ta'limiy hamkorlikka erishish.

## **Tashkilotchilik malakalari:**

- talabalarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish;
- talabalarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;
- dars jarayonida vaqtni to'g'ri taqsimlash va rejani samarali bajarish;
- talabalar bilan individual ishlarni tashkil etish;
- guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish;
- talabalarda ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarga o'quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish;
- o'quvchilarning diqqatini boshqarish;
- talabalar o'rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish;
- darslarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish;
- talabalarning o'quv faolliklarini oshirish,
- ularning mustaqilligini ta'minlash;
- kichik guruhlarni shakllantirish asosida topshiriqlar bajarilishini ta'minlash;
- talabalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar ro'yxatini ishlab chiqish.

## **Izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar:**

- o'quv materialini mazmunini bayon qilishda nutqiy izchillikni ta'minlash;
- og'zaki va yozma nutqni bayon qilishda o'zaro izchillikni qaror toptirish;
- talabalarning mavjud bilimlari bilan yangi o'zlashtiriladigan bilimlar o'rtasida muayyan izchillikni yuzaga keltirish;
- talabalarning mavjud hayotiy qarashlarini yangi g'oyalar bilan boyitish;
- darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda talabalarni faol faoliyatga undovchi metodlardan foydalanishda muayyan izchillikka erishish;




- talabalar BKM darajasining DTS talablariga muvofiq kelishida ma'lum izchillikka erishish;
- guruh jamoasining ijtimoiy-psixologik holatini o'rganish metodlaridan foydalanishda pedagogik faoliyat izchilligini ta'minlash;
- talabalarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholashda doimiy izchillikka erishish.

### Texnik-texnologik malakalar:

- ta'lim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini tatbiq etish;
- dars jarayoni mazmunini texnologik pasport va texnologiya xarita yordamida yoritish;
- o'quv materialini mazmunini yorituvchi slaydlarni tayyorlash;
- o'quv mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida tashkil etish;
- ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;
- darslarda proektorni qo'llay olish;
- o'quv materiallarini audio va video yozuvlari, taqdimot asosida bayon qilish;
- talabalarda o'quv materialini mustahkamlash va o'quv topshiriqlarini berishda axborot texnologiyalarini qo'llash;
- kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- talabalarning BKMni baholashni kompyuter asosida tashkil etish;
- talabalarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda kompyuter yordamiga tayanish va b.sh.

**Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari.** Yuqorida aytib o'tilganidek, barcha shaxslarda bo'lgani kabi pedagoglarga ham kreativlik sifatleri o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritiladi. Patti Drepeau<sup>5</sup> tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan.



<sup>5</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 9.



**1-yo'l: kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish.** Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, talabalar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab bering" mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi "ta'riflab bering" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra "mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting" deyish bilan teng.

Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo'lga ko'ra pedagoglar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: "*bog'liqlikni toping*", "*yarating*", "*bashorat qiling*", "*fikrni mantiqan bayon eting*", "*tasavvur qiling*" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda pedagog talabalardan "Pedagogik va ishlab chiqarish qonuniyatlarining o'zaro integratsiyasini izohlash"ni talab qilish o'rniga, "Pedagogik va ishlab chiqarish qonuniyatlarining turlari va ularning o'zaro integratsiyasi"ni so'rashi lozim. Natijada talabalar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagoglar birinchi yo'lni qo'llash – talabalarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda yosh o'qituvchilarning "Kreativlik xaritasi"dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

**2-yo'l: amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish.** Pedagoglar talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, talabalarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

Patti Drapeau o'z asarida bir qator talabalarda interfaollik va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lgan yo'l va metodlarni keltirib o'tadi. Xususan: - Veb-saytlar bilan ishlash; - vizuallashtirish; - barcha nuqtai nazarlarni inobatga olish; - muhim g'oyalarni turli vaziyatlarda va o'rinli qo'llash (g'oyani boshqa sharoitga ko'chirish – transformatsiya); - ramziylashtirish kabi yo'llar; - "Aqliy hujum"; - "Keys-stadi" kabi metodlar<sup>6</sup>.

**3-yo'l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish.** Mazkur yo'l talabalarni muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi.

**4-yo'l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish.** Bu yo'lni tutishda pedagog talabalarga "Didaktika tarbiya nazariyasi" mavzusida Power Point dasturi

<sup>6</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 8-10.



yoki multimediya yordamida taqdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi.

Talabalar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrash bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi<sup>7</sup>.

Shaxsan Siz nima deb o'ylaysiz: oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kreativ fikrlashga undash jarayonida mazkur yo'llardan qay tartibda foydalanish kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Bu o'rinda Patti Drapeau quyidagi maslahatni beradi: "Bir manzildan ikkinchi manzilga borish uchun biz ikki va undan ko'p yo'nalishlarni bosib o'tamiz. Bu fikr quyida bildiriladigan ko'rsatmalarga ham taalluqlidir. O'qituvchi dars jarayonida bir yoki bir nechta (yuqorida keltirigan) yo'llardan foydalanishi mumkin. O'qituvchi kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi fe'llarni qo'llash (1-yo'l)ga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (3-yo'l) ustida ish olib borayotgan talabalarni kreativ fikrlash strategiyalari (2-yo'l)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (4-yo'l) ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Kreativ fikrlash jarayonini mohiyatini yorituvchi xarita o'qituvchilarga dars jarayonida namoyon bo'ladigan kreativlik darajasi, turini aniqlashga yordam beradi"<sup>8</sup>.

Talabalar kreativlik rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va talabalar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish, haddan tashqari baxolarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo'rqish xissi mavjud talabalarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni odatga aylantirish, talabalarning o'qishdagi muvaffaqiyat va o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni oshirish faqatgina kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qo'llash orqali va sog'lom muhitdagina erishish mumkin"<sup>9</sup>.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o'qituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi.

"Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir; kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har

<sup>7</sup> O'sha asar. – 10-bet.

<sup>8</sup> O'sha asar. – 12-bet.

<sup>9</sup> O'sha asar. – 12-13-betlar.



qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, talabalarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari talabalarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi (2.1-jadval). Bu auditoriyadagi muhit, talabalarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi"<sup>10</sup>.

**1-jadval. Talabalarda kreativlikni shakllantirish<sup>11</sup>**

<b>Talabalarda kreativlikni shakllantirish</b>	
Talabalarni ...	- qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash
Talabalarga ...	- kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - "qutqarib" qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish
Talabalarni ...	- suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash; - yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish
Talabalar ...	- o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish

**2. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar.** Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda "o'qituvchining roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatleri, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish;

<sup>10</sup> O'sha asar. – 14-bet.

<sup>11</sup> O'sha asar. – 15-6er.





- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

“Innovatsion muhitda o'qituvchi talabalar diqqat-e'tiborini jalb etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg'otuvchi ma'lumot, talabalarni o'ziga jalb etib, ularda o'qishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Olib borilgan miya taqiqotlari shuni ko'rsatdiki, innovatsiya (yangilik) hamisha miyani faollashtiradi. O'qituvchi talabalarni yangi ma'lumot va manbalar bilan ta'minlaganda yoki yangi strategiyalarni qo'llaganda, miya “uyg'onadi” va e'tibor qaratadi. Masalan, biror bir adabiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxsga o'xshab kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o'rnini almashtirish, o'yinlar o'ynash (bu o'rta maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalariga ham birdek taalluqli), dars shaklini o'zgartirish.

Innovatsion muhitda o'qituvchi talabalarga tez-tez tanlash imkonini berishi lozim. Tanlov kreativlikni shakllantirishda muhimdir va u talabalarni ruhlantirib, ularga o'qishni nazorat qilish imkonini beribgina qolmay, balki huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi. Tanlov huquqi nafaqat o'qituvchi-talaba munosabatini yaxshilash, balki har ikki tarafning ham individualligini ifodalashga zamin yaratadi. Tanlov huquqi faqat bir tomonlama bo'lishi ham mumkin, ya'ni tanlov talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi va yakuniy natija ikki yoki undan ko'p shaklda taqdim etilishi mumkin”.

Oliy ta'lim muassasalarida ham o'qituvchilar talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo'lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero, katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

O'qituvchi innovatsion ta'lim muhitida jamoa tuyg'usining ahamiyatini anglagan holda, doimiy ravishda guruhlarni o'zgartirib, talabalarda jamoa bo'lib ishlash, boshqalar qobiliyati va mahoratini hurmat qilish ko'nikmasi shakllantiradi. Vaholanki, yakka tartibda ishlash ma'lum vaziyatlarda samara bersa, innovatsion ta'lim muhitida kichik guruhlarda ishlash maqsadga muvofiqdir, chunki kreativlik ko'nikmasi ijtimoiy fenomendir. Soyerning fikriga ko'ra, kreativ qarashlar jamoa bo'lib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida shakllanadi.

Talabalarni kichik guruhlarga bo'lish mezonlari:

- talabalarni *ma'lum sohadagi qobiliyatlariga* ko'ra kichik guruhlarga bo'lish; talabalarni bunday qobiliyatiga ko'ra bo'lish aslo kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq bo'lmasligi lozim. Bunday guruhlarda talabalar erkin harakat qila olishlari va vaqti kelsa boshqa guruhga o'tishga tayyor bo'lishlari lozim;

- *hamkorlik guruhlari* talabalarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi; bunday guruhlar turli bilim va qobiliyat darajasiga ega talabalardan iborat bo'lishi ham mumkin. Ko'p hollarda bunday guruhdagi talabalar ma'lum bir rol, ya'ni mas'uliyatni o'z yelkalariga oladilar. Mazkur guruhni shakllantirishda asosiy



e'tibor talabaning kognitiv hohish-istalariga emas, balki uning ilmiy va ijtimoiy bilimiga beriladi;

▪ **moslashuvchan guruhlar** talabalarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va hohish-istalari asosida tashki etiladi. Guruhning qiziqishlari o'zgarsa, shunga ko'ra uning a'zolari ham o'zgaradi. Bunday guruh talabalarda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qituvchi talabalar muvafaqqiyatga erishishlari uchun ularni qiziqarli, murakkab vazifalar va aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlaydi. Ma'lum vazifani bajarish jarayonida talabalar ishga "berilib" ketishlari sababli ular vaqt tushunchasini unutib qo'yadilar. Vaholanki, talabalar maktab sharoitida kamdan-kam bunday holatga tushsalar, o'qituvchilar bunday mug'hitni yaratishga intilishlari lozim".

**3. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, tamoyillar, malakalar, darajalar va sifatlar.** "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

**1. Ravonlik.** Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi *ko'p* degan so'zga asoslanadi.

**2. Moslashuvchanlik.** Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi *o'zgartirish* degan so'zga asoslanadi.

**3. O'ziga xoslik.** Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi *noyob* degan so'zga asoslanadi.

**4. Yaratuvchanlik.** G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi *qo'shish* degan so'zga asoslanadi.

Innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

**Ravonlik.** Kreativ ravonlikning asosiy maqsadi talabalarda bir emas, balki bir nechta g'oyalarni o'rtaga tashlash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Son asosiy maqsaddir; bir qator g'oyalar ichidan bir yoki undan ko'p maqbulini topishimiz mumkin. Ko'p hollarda o'qituvchilar talabalarda ravonlik ko'nikmasini shakllantirish uchun "aqliy hujum" strategiyasidan foydalanadilar. Bu mashq og'zaki yoki yozma (g'oyalarni qog'ozga yozib, keyingi talabaga qo'shimcha g'oyalar kiritish uchun uzatishi lozim) tarzda bajarilishi mumkin. "To'xta va boshla" mazmundagi "Aqliy hujum" mashqida talabalar g'oyalarni o'rtaga tashlab, ularni tahlil qiladilar va baholaydilar, so'ng bu yana bir bor qaytariladi. Talabalar bu mashqda yaxshi natijalarga erishsalar, ulardagi kreativlik ko'nikmasi erkin va ravon fikrlash ko'nikmasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Agarda aksi bo'lsa, doimiy mashq va tajriba yordamida yashxi natijalarga erishi mumkin.

O'qituvchi mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchragan talabalarni kuzatishi tabiiy. Faqatgina yuzaki ma'lumotga ega bo'lgan talabalar cheklangan bilimga ega bo'lganliklari sababli turli va qiziqarli g'oyalarni o'ylab topishda



qiynaladilar. Ba'zi hollarda esa, yetarlicha ma'lumot va bilimga ega talabalar ham mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchrashlari mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchi quyidagi strategiyalardan foydalangan holda talabalarga yordam berishi mumkin:

- *O'quv mashg'ulotlarda talabalarga ruh bag'ishlovchi muhitni yaratish.* O'qituvchi talabalarga auditoriyadagi barcha buyumlar, jihoz, deraza va devorga osilgan rasm, jadval, sxemalarga e'tibor qaratishni va ularga sinchiklab qarashni so'raydi. Auditoriyadagi barcha narsalar talabalarda qanday g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ularga bu jihoz va buyumlar nimalarni eslatdi yoki qanday ma'lumot bilan bog'liqligi bor? Masalan, agarda talabalar sunami haqida "aqliy hujum" mashqini bajarayotgan bo'lsalar, tashqarida nur sochib turgan quyosh ularga sunami quyoshli kunda ro'y berishini eslatishi mumkin.

- *Yangi g'oyalarni o'ylab topishda talabalar qiziqishlaridan foydalanish.* "Aqliy hujum" mashqi ma'lum bir adabiy asar haqida bo'lsa, asar qahramonlari xarakteri va ularning hatti-harakatlarini ular yoqtirgan asar qahramonlari, televizion ko'rsatuv ijodkorlari yoki mashhur sportchilarning fe'l-atvori va hatti-harakatlari bilan solishtirishlari mumkin.

Talabalar kreativlikda ravonlik va erkinlikka erishmasalar, mashq va darslar jarayonida ularning miyasiga birinchi kelgan g'oyagagina tayanib qoladilar, vaholanki bunday g'oya boshqalarning g'oyasida ajralib turmaydi va talabaning keng fikrlashidan dalolat bermaydi. Qolaversa, muammoning yechimini topishda qancha ko'p g'oya topilsa, to'g'ri javob yoki variantni tanlash imkoniyati shuncha katta bo'ladi. Masalan, tarix darsi jarayonida yevropalik bosqinchilar Amerika mintaqasiga ilk bor qadam qo'yganda ular topgan birinchi narsa "kompyuter" degan javob ham noto'g'ri bo'lar edi; javoblar berilayotgan savollar doirasida bo'lishi lozim. Savol qancha ko'p detallarni o'z ichiga olsa, talabalar ham muvofiq ravishda javob topishga harakat qiladilar.

**Moslashuvchanlik.** O'quvchilar keng fikr yurita olsalar, vaziyat va muammoga ham bir qancha va turli yechim topadilar. Talabalarda moslashuvchanlikni ular turli nuqtai-nazar va fikrlarni inobatga olganlari va ularni tahlil qilganlarida, turli fikrlarin bir-biri bilan solishtirganda va ularning o'hshash va farqli tomonlarin topganlarida va nihoyat muvafaqqiyatga erishib, yaxshi natijalar ko'rsatayotganlarida kuzatish mumkin.

Moslashuvchan bo'lish uchun talabalar ma'lumotning faqat yuzaki qismini emas, balki uning chuqur mohiyatini anglab yetishlari lozim. Moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirishda talabalar amaliyot bilan ta'minlansa va ularga yo'l-yo'riq ko'rsatilsa, kelgusida turli g'oyalarni topishda bu kuchli stimuly bo'lib xizmat qiladi. Agarda talaba ko'plab g'oyalar topgan bo'lsa, u moslashuvchanlikni emas, balki ravon fikrlashni namoyon qilmoqda, chunki bunda barcha e'tibor bitta yoki bir turdagi javoblarga qaratiladi. Talabalarda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirishda soni jihatdan ko'p emas, balki turli mazmundagi g'oyalarni topish kerakligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Muammoning mazmunini chuqur anglagan holda ham, talabalar turli g'oyalarni topishda qiynaladilar yoki umuman bunga qodir bo'lmaydilar. Bu esa,





o'z o'rnida, ularda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirish kerakligidan dalolat beradi.

Tajriba va doimiy mashq yordam bersada, o'qituvchi talabalarga murabbiy sifatida turli strategiyalardan foydalanishni o'rgatishi kerak. Talabalarga turli g'oyalar turli toifa (kategoriyalar)ga bo'linishini anglashida yordam berish mumkin. M: "hayvonlar" kategoriyasiga talabalar hayvonlar nomlarini keltiradilar. Birozdan so'ng, "taomlar" kategoriyasiga talabalar avval milliy keyin boshqa halqlar taomlari ro'yxatini tuzadilar. Mashq shu yo'sinda davom etadi. Bu talabalar bir kategoriya, ya'ni bir fikrdan ikkinchisiga o'tish va unga tezda moslashish ko'nikmasini o'zlashtirmaguncha davom etadi. Talabalarda bunday ko'nikma shakllangach, ulardan moslashuvchanlik bilan fikrlashni talab qilish mumkin. Masalan, "Agarda Zolushka yetim va kambag'al bo'lmaganida, voqealar rivoji qanday tus olgan bo'lardi?" va "Janubiy shtatlar fuqarolik urushi davrida qanday strategiyani qo'llanganda urushda g'olib bo'lardi?". Turli kategoriyalarga mansub savollar talabalarda moslashuvchanlik ko'nikmasini rivojlantiradi.



Talabalarni birgina kategoriyada "qotib" qolishini oldini olish uchun *majburiy solishtirish* strategiyasini qo'llash mumkin. M: o'qituvchi "intilganga tole yor" shiori Zolushka voqeasi yoki matematik tenglama, "*perpetuum mobile*", ya'ni abadiy g'ildirakka nisbatan qanday qo'llanilishi mumkinligi haqida so'rashi mumkin. Mazkur strategiya moslashuvchanlik bilan fikrlash orqali voqealar va tushunchalar o'rtasida bog'liqliklarni topishga yordam beradi.

Ko'p yillar avval Aleks Osborn moslashuvchanlik bilan fikrlashni kuchaytiruvchi savollar toifasini tuzib chiqqan. Eberlarning 1971 yilda ishlab chiqqan SCAMPER mnemonik sxemasi *substitute* (almashtirmoq/o'zgartirmoq), *combine* (birlashtirmoq), *adapt* (moslashtirmoq), *modify* (o'zgartirmoq/boshqa shakl bermoq), *maximize/minimize* (maksimallashtirmoq/minimallashtirmoq), *put to other uses* (boshqa soha/usulda qo'llash), *eliminate* (oldini olmoq) va *rearrange* (qo'llanilishini o'zgartirish) kabi tushunchalar asosida ishlab chiqilgan. 2.2-jadval 4-sinf o'qituvchisi SCAMPER mnemonik sxemasidan talabalarda moslashuvchan fikrlashni rivojlantirishda istiqomat qilayotgan shahri, tuman,



mahallasining ramzi yoki iqtisodiyot, sanoat, oziq-ovqat sohasiga tegishli ma'lumotlarni va aynan Mayn shahrining ramzi bo'lgan mashhur olmalı pirogidan o'quvchilar e'tiborini tortishda foydalanganini ko'rsatadi. O'quvchilar mnemonik sxemadan foydalangan holda agarda shokoloddan mashhur olmalı pirogni pishirishda shokoladdan foydalanilsa va pishirish jarayonida pirogning tarkibi yoki shakli o'zgartirilsa qanday natijaga olib kelishi va qanady qilib bu shokoladli pirogni Mayn shahrining mashhur pirogiga aylantirish mumkinligi tahlil qiladilar"<sup>12</sup>.

**2.2–jadval. SCAMPER strategiyasini qo'llash asosida kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish<sup>13</sup>**

SCAMPER mnemonik sxemasidan moslashuvchan fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda foydalanish		
SCAMPER	Savollar	Vazifalar
<i>Substitute</i> (almashtirmoq/o'zgartirmoq)	Agar shokoladning o'rniga vanilladan foydalanilsa qanday pirog xosil bo'ladi?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, rasmini chizing.
<i>Combine</i> (birlashtirmoq)	Agar shokoladli pirog qaymoqli krem bilan bezatilsa, qanday ta'mga ega bo'ladi?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, rasmini chizing.
<i>Adapt</i> (moslashtirmoq)	Yumaloq pirog shaklini qanday o'zgartirish mumkin?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni tariflang.
<i>Maximize/minimize</i> (maksimallashtirmoq/ minimallashtirmoq)	Pirogning eng kichik/katta bo'lagi qanday shaklga ega?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni tariflang.
<i>Put to other uses</i> (boshqa soha/usulda qo'llash)	Shokoladli pirog bilan yana nimalar qilish mumkin?	Variantlar ro'yxatini tuzing.
<i>Eliminate</i> (oldini olmoq)	Shokoladli pirogga shakar solish esdan chiqqanda nima bo'lar edi?	Variantlar ro'yxatini tuzing.
<i>Rearrange</i> (qo'llanilishini o'zgartirish)	Shokoladli pirogni insonlar taom o'rnida iste'mol qilsalar qanday natijaga olib kelar edi?	Variantlar ro'yxatini tuzing

**O'ziga xoslik.** O'ziga xoslik noodatiy g'oyalar o'ylab topish ko'nikmasidir. O'quvchilar o'zlarida avval moslashuvchanlik va ravonlik ko'nikmalarini shakllantirib, so'ng noodatiy, original g'oyalarni kashf etish ko'nikmasini hosil qilishlari lozim. Ravon fikrlash ko'nikmasi o'quvchilarda originallikni rivojlantirishda boshlang'ich va asos soluvchi qadam bo'lib xizmat qiladi; agarda talaba ko'p g'oyalarni o'rataga tashlasa, ulardan bir yoki ikkitasi albatta boshqa talabani g'oyasi ham bo'ladi. Moslashuvchan fikrlash o'quvchilarga ularning har bir g'oyalari bir-biridan farqlanishini ko'rish va anglash imkoni beradi;

<sup>12</sup> O'sha asar. – 18-21-betlar.

<sup>13</sup> O'sha asar. – 21-bet.





ularning orasida hammasidan ajralib turuvchi g'oya bo'lsa, demak ana shunisi original (o'ziga xos) g'oya hisoblanadi.

Talabalar original g'oya kontekstidan kelib chiqishi lozimligini anglashlari lozim. G'oya bir dars jarayonida, birgina sharoitlar va bir vaqt oralig'ida taqdim etilishi lozim. Talabalarda rovon fikrlash va moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'ziga xos tarzda (original) fikrlash to'g'risida ham ma'lumot berib o'tish lozim. Masalan, talabalarni "aqliy hujum" strategiyasi yordamida ocharchilikka qarshi kurashish mavzusida muammoning yechimi ro'yxatini tuzish (ravonlik), so'ng berilgan g'oyalarni bir necha kategoriyalarga bo'lib chiqish (moslashuvchanlik) va ulardan qay biri o'ziga xos (originallik) g'oya ekanligini aniqlash talabalarda shakllangan ko'nikmalarining bir paytning o'zida qo'llanilishini ko'rsatib beradi. (Mazkur yondashuv Iqtidorlilar insonlarning keng fikrlash modeli asosida yaratilgan; Schlichter, 1986).

Moslashuvchan fikrlash ko'nikmasini shallantirishda talabalar qiziqishlari va madaniy qarashlaridan foydalanish ularda originallikni tarbiyalashda katta samara beradi. Mayn shahrida istiqomat qiluvchi o'rta ta'lim mavtabi o'qituvchisi mazkur strategiyani o'quvchilarda o'ziga xos (original) tarzda fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda qo'llagan. U ravonlik va moslashuvchanlik bo'yicha mashq va o'yinlarni o'z ichiga olgan elektron dastur ishlab chiqqan. O'quvchilar berilgan vazifalarni PowerPoint prezentatsiyasi, portfolio yoki boshqa shaklda bajarish tanloviga ega edilar. Talabalar natijalarni qo'shiq PowerPoint prezentatsiyasi shaklida taqdim etdilar. Bunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan keyinchalik o'qituvchi va o'quvchilar orasida mashhur bo'lib, u vazifa mazmunini chuqur anglash va natijalarni original tarzda bjqqri ko'nikmalarini shakllantirishda o'z samarasini ko'rsatdi.

**Yaratuvchanlik.** "Yaratuvchanlik" tushunchasi boshqa bir g'oyani rivojlantirish va uni kengaytirishga asoslanadi, ya'ni berilgan vazifalar anu shu g'oya asosida bajariladi. Bir g'oyani kengaytirish uchun talabalar mavzu, muammo yoki vazifa mazmunin chuqur anglab yetishlari va talab etilgan darajada bilimga ega bo'lishlari lozim.

Talabalarga "yaratuvchanlik" tushunchasi haqida gapirganda, ularga hayotiy misollar keltirish maqsadga muvofiqdir (masalan, kompyuterlar, rekonstruksiya, kino va adabiy asarlar, ilmiy tushunchalar va nazariyalar, insonlar hayotida yuzaga keladigan muammolarni yechish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlar). Talabalarda ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantirisha adabiy yoki asarlarni bir-biri bilan taqqoslash (ba'zan ko'p betli asarlar kichkina kam betli asarlar kabi ko'p ma'lumot bermaydi) mashqi katta samara beradi".

Pedagoglarda kreativlik sifatleri, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikalik tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo'llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi. Qolaversa, pedagoglarda kreativlik sifatlerini shakllantirisha ustuvor tamoyillar asosida ish ko'rish aniq maqsaga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg'ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko'rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq



va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo'ladi.

## Nazorat savollari:

1. Pedagogik kreativlikka qanday sifatlarni xos?
2. Pedagoglarda qanday ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo'lishi zarur?
3. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud?
4. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar nimalarda aks etadi?
5. Shaxs kreativligini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?
6. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari nimalarda aks etadi?
7. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining tarkibiy asoslari nimalardan iborat?
8. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday mezonlar yordamida aniqlanadi?
9. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday darajalarda namoyon bo'ladi?

## 3-MAVZU: PEDAGOGLARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MOHIYATI

Reja:

1. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati.
2. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo'l va shakllari.
3. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

**Tayanch tushunchalar:** kreativlik, pedagogika, "Kreativ pedagogika" sifat, kreativlik sifatlari, malaka, ijodiy faoliyatni malakalari, kreativ sifatlarni rivojlantirish yo'llari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari.

**1. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati.** Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezing muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarning qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi.



Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko'rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.). O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta'lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan'anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta'lim departamenti, 2013 y.).

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs (o'zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko'plab talabalarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qolgan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi talabalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda



asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil – **kreativlik** sanaladi<sup>14</sup>.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar (Kim, 2005 y.).

"Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Ko'pgina o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o'qituvchilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir"<sup>15</sup>.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. ***Har tomonlama fikrlash***

<sup>14</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

<sup>15</sup> O'sha asar, x-bet.





talabalardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda ***bir tomonlama fikrlash*** esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

**Kreativlik** (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

**2. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo'l va shakllari.** Xorijiy mamalakatlarining ta'lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metod va strategiyalar qo'llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va o'quvchilarni o'quv materiallari yuzasidan chuqur o'ylashga majbur qiladi. Shu sababli bu metod va strategiyalarni kreativlik sifatleri nihoyatda past rivojlangan o'quvchi va talabalar bilan ishlash jarayonida samarali qo'llab bo'lmaydi.

Kzikszentmixayli (Csikszentmihalyi, 1996 y.) kreativ shaxslar ikki toifaga bo'linadi degan fikrni ilgari suradi:

1. Katta kreativlar ("katta K"). Ular o'zlari faoliyat olib borayotgan sohaning yetakchilari bo'lib, sohada doimo o'zgarishlarni sodir etishga intiladi.

2. Kichik kreativlar ("kichik K"). Ular o'zlarining kreativlik sifatlaridan faqatgina kundalik hayotda muayyan foydaga erishish uchun foydalanadi.





Aksariyat talabalar o'zlarini kreativ shaxs emas, deb hisoblaydi. Ularning nazarlarida kreativlik go'yoki ular yetisha olmaydigan orzu va u faqat iqtidorli shaxslardagina namoyon bo'ladi. Bunday fikrga ega talabalar kreativlik sifatlariga egalik o'z sohasining yetakchilari (ya'ni "katta K" toifasiga kiruvchi shaxslar), san'at sohasida tahsil olayotgan yoki faoliyat yuritayotgan talabalarda bo'lishiga ishonadilar. Talabalar qachonki kreativ shaxs bo'lish uchun o'z sohasining yetakchisigina bo'lish shart emasligi tushunsalar, o'zlarida kreativlik sifatlarini samarali shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Shundagina ular o'zlarini past baholashga barham berib, yangi, ilg'or g'oyalar bilan o'zlarini namoyon etishlari, ta'lim jarayoni kun sayin faollik ko'rsatishga muvaffaq bo'ladilar, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yanada yaxshilanadi. O'zlarini baland baholay boshlab, kreativ sifatlarini namoyon etish borasida mavjud ko'rsatkichlardan ko'ra yuqori natijalarga erishishga intiladilar. Amaliyotning ko'rsatishicha, talabalar qancha ko'p kreativlik sifatlarini namoyon etsalar, shuncha ko'p faollikka erishadilar.

Kreativ xarakterga ega mashg'ulotlar talabalarning qiziqishlarini kuchaytirib, ular yanada ko'proq harakat qilishga undaydi. Duek (Dweck, 2006 y.) tomonidan e'tirof etilishicha, talabalar amaliy harakat va faollik jiddiy o'zgarishlarga olib kelmasligiga ishonishdek salbiy tushunchalarga ega. Ular o'zlarining muayyan imkoniyatlarga egaliklarini biladilar, biroq, mavjud imkoniyatlari hech narsani o'zgartirmaydi deb hisoblaydi. Shu sababli ular o'zlarining faollik darajasini erishayotgan yutuqlari bilan emas, aksincha, doimo muvaffaqiyatsizliklari bilan baholashga odatlanib qolishadi. Bu esa nihoyatda xavfi. O'zlarini yuqori baholaydigan talabalar esa mavjud ko'nikma, malaka va iqtidorlari yanada rivojlanib borishiga ishonadilar. Bunday talabalar odatda murakkab ishlarda faol qatnashadilar va o'zlarini namoyon eta oladilar ham. Xato qilsalar undan xulosa chiqarib, o'sishda davom etadilar. Bunday fikrlash odatiga ega o'quvchilar kirishimliroq va kreativlik ko'nikmasidan foydalanishga moyil bo'ladi<sup>16</sup>.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bugungi kunda iqtidorli bolalarni aniqlash borasida katta tajribalarga ega. Ta'lim tizimida iqtidorli bolalarni aniqlash va ularga ta'lim berishga oid ko'plab metodikalar mavjud. Quyida ularning ayrimlari to'g'risida to'xtalib o'tiladi:

**Slosson testi**<sup>17</sup>. Katta yoshlilar hamda bolalarning aqliy qobiliyatini o'lchashga xizmat qiladi. Berilayotgan barcha testlarga javoblar og'zaki tarzda olinadi. Kichik yoshli bolalarga berilayotgan topshiriqlarning ayrimlari bolalar tomonidan ayrim harakatlar (masalan, qog'oz, qalam yoki ruchkalardan foydalanish)ning bajarilishiga oiddir. Test aqliy qobiliyat darajasining o'rganilayotgan sifatlarga nisbati tarzida aniqlanadi. Bu o'rinda yuqori natija 120 va undan ortiq ko'rsatkich sanaladi.

<sup>16</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

<sup>17</sup> Одарьонные дети (Per. s ang.). – M.: Progress, 1991. – S. 177-178.



**Veksler shkalasi**<sup>18</sup>. Veksler shkalasi ("PPSI" testi) aqliy qobiliyatni aniqlashga imkon beruvchi individual test hisoblanadi. U ikki qismdan iborat:

1) og'zaki shkala (ma'lum materialni o'zlashtirish, uning mazmunini tushunish, arifmetik topshiriqlarni bajarish, o'zaro o'xshashliklarni topish, lug'at boyligiga egalikni namoyish etish kabi beshta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi);

2) harakat shkalasi (kubiklardan konstruksiyalar yaratish, labirintlarni topish, chizilayotgan surat (kartinalar)ni yakuniga yetkazish, tavsiya etilayotgan kod (tasvir)lar mohiyatini ochib berish ("Hayvonlarning uylari" mavzusi bo'yicha) kabi beshta holat ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi.

**Torrens (I) testi**<sup>19</sup>. Torrens (I) testi yozma shaklda bo'lib, tafakkurning quyidagi sifatlarini aniqlashga yordam beradi:

- 1) tezkorlik;
- 2) aniqlik;
- 3) tasavvurning boyligi va o'ziga xosligi.

Test noto'g'ri shaklda yoritilgan surat (kartina)ni to'g'ri shaklda ifoda etishga asoslanadi. Bunda boladan juda yorqin ranglarda noto'g'ri tasvirlangan kartinani alohida qog'ozga to'g'ri shaklda qayta tasvirlay olish talab etiladi.

**Torrens (II) testi**<sup>20</sup>. Torrens (II) testi og'zaki shakldagi test bo'lib, bolalar va kattalarning ijodiy qobiliyatini og'zaki usullar yordamida aniqlashga xizmat qiladi. Test quyidagi tavsifga ega:

- 1) savollarni bera olish malakasiga egalik;
- 2) surat (kartina)lar majmuida tasvirlangan vaziyatlarga mos keluvchi holatlarning sabab va oqibatlarini aniqlay olish;
- 3) kundalik hayotda eng oddiy va ommaviy predmetlarni qo'llashning o'ziga xos usullarini taklif eta olish;
- 4) barcha uchun yaxshi tanish bo'lgan predmetlar bo'yicha kutilmagan savollarni bera olish;
- 5) taxminlarni ilgari sura olish.

Pedagogik manbalarda pedagogning kreativ tafakkuri darajasini quyidagi metodlar<sup>21</sup> yordamida baholash mumkin ekanligi ko'rsatilgan:

1) ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi shaxsi va faoliyatini bevosita o'rganish metodlari (pedagogik kuzatish, o'qituvchining ish hujjatlari va rejalarini o'rganish, suhbat va h.k.);

2) pedagogik tafakkurni tashxislashga yordam beruvchi maxsus metodlar (tashxisli vaziyatlar, anketa, reyting, test va b.)

Ushbu metodlar yordamida oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik bilimlari darajasini ham baholash mumkin. Faqat bu o'rinda o'qituvchining ish hujjatlari, rejalarini o'rganish emas, balki talabalarning individual, mustaqil ta'lim olishlari va ularning natijalarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir

<sup>18</sup> Tot istochnik. – S. 177.


<sup>19</sup> Tot istochnik. – S. 183.

<sup>20</sup> Tot istochnik. – S. 183.

<sup>21</sup> Zanina L.V., Menshikova N.L. Основы педагогического мастерства /Ucheb.posobie dlya stud. ped. vuzov. – Rostov-na-Donu, Feniks, 2003. – S. 238.



**3. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.** Yuqorida aytib o'tilganidek, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon sanaladi. Ta'lim jarayonini kuzatish, bevosita pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonida quyidagi metodlar<sup>22</sup> talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilan birga pedagogiklarda kasbiy faoliyatni tashkil etishda namoyon bo'luvchi ijodiy malakalarni mustahkamlanishiga xizmat qiladi (1-rasm):



**1-rasm. Shaxs kreativligini rivojlantiruvchi metodlar**

Quyida mazkur metodlarni qo'llash imkoniyati "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanining negizidan joy olgan "Pedagogika tarixi"<sup>23</sup> bo'limi bo'yicha misollarni keltirish orqali ochib berilgan (keltirilgan misollar o'z mohiyatiga ko'ra shaxs kreativligini rivojlantirishga yordam beradi:

**1. Guruhlashtirish.** Metodni qo'llashda talabalar o'quv materialini mazmunan yoki unda faol qo'llanilayotgan tayanch tushunchalar asosida guruhlarga ajratib oladilar. Bu usul o'quv materialining kichik bo'lagida ilgari surilgan g'oyalarni puxta o'zlashtirib olish asosida navbatdagi bo'lak matni bilan ishlashga asoslanadi. Guruhlashtirishda dastlabki bo'lak o'quv materialini mohiyatini chuqur anglamay turib, keyingi bo'lak matni bilan ishlashga yo'l qo'yilmaydi. Zaruriyat bo'lsa, har bir bo'lak materialini talabalar tomonidan qayta-qayta o'rganiladi. Guruhlashtirish reja tuzish usuli uchun dastlabki asos bo'la oladi.

Ta'lim jarayonida talabalarda guruhlashtirish metodini qo'llash ko'nikma va malakalarini hosil qilishga e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash uchun guruhlar shakllantirildi.

Misol uchun: Mahmud Qoshg'ariyning pedagogik qarashlarini o'rganishda yaxlit o'quv materialini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

<sup>22</sup> Turdieva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 36-40-b.

<sup>23</sup> Turdieva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-b.



- a) Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari va uning ommalashish tarixi;
- b) asarda bilim olishning ijtimoiy ahamiyati va bilimli kishilarning shaxsi haqidagi qarashlarning yoritilishi;
- v) insoniylik fazilatlarini to'g'risidagi fikrlar asar mohiyatini ochib beruvchi jihatlardan biri ekanligi;
- g) mehmon va uning ijtimoiy mavqei asarda aks ettirilishi;
- d) asarda mol-mulk va unga munosabat masalalarining bayon etilishi;
- j) xalq maqollarining asar mohiyatini ochib berishdagi o'rni

**2. Reja tuzish.** Talabalarni o'zlashtirilayotgan mavzu bo'yicha reja tuzishga undash va dastlabki ko'nikmalarni hosil qilish ular tomonidan o'quv materialini mohiyatini chuqur anglanishiga zamin yaratadi. Binobarin, bu holatda tinglanayotgan (o'qituvchi hikoyasi) yoki o'qilayotgan (darslik, qo'llanma, yordamchi adabiyotlar, Internet materiallar va boshqalar) o'quv materialini mantiqiy ravishda guruhlarga ajratish va har bir guruhga kiritilgan materialning tub mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi iboralarni ajratish talabdan barqaror diqqat, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishni taqozo etadi. Usulni qo'llashda shior bo'lgan talab – rejaning har bir bandi uchun belgilanayotgan ibora o'zida o'quv materialini muayyan bo'lagida ilgari surilayotgan fikr va qarashlar haqidagi ma'lumotni reja bilan tanishayotgan vaqtdayoq anglata olishi zarur.

Ta'lim jarayonida talabalarda reja tuzish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha rejalar tuzildi.

M.: Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning pedagogik qarashlarini o'rganish chog'ida talabalar tomonidan rejaning quyidagi tarzda tuzilishi maqsadga muvofiq:

I. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy va uning "Odob as-solihin" asarining umumiy mazmuni.

II. Ruxsat so'rash va salomlashish qoidalari.

III. Uxlash shartlari va kiyinish madaniyati.

IV. Suhbatlashish odobi.

V. Er-xotin munosabatlari mazmuni.

VI. Bemor holidan xabar olish qoidalari.

VII. Ta'ziya va musibat odoblari. VIII. Qabristonga bo'lgan munosabat.

IX. Ziyofat va mehmondorchilik odoblari.

X. Ovqatlanish madaniyati.

XI. Safar yurish odobi.

XII. "Odob as-solihin" asarining bugungi kundagi ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati

**3. Tayanch tushunchalarni aniqlash.** Ushbu metodni qo'llashda talabalar ularning e'tiborlariga havola etilayotgan o'quv materialida ilgari surilayotgan fikrlar mohiyatini anglatuvchi asosiy tushunchalarni ajratib ko'rsata olishlari lozim.

Talabalarining tayanch tushunchalarni aniqlay olishlari ularni o'quv materialini mohiyatini yetarli darajada anglay yoki o'zlashtira olganliklaridan dalolat beradi. Ta'lim jarayonida talabalarda tayanch tushunchalarni aniqlash ko'nikma va



malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha tayanch tushunchalar ajratildi.

Misol uchun: sohibqiron Amir Temurning pedagogik qarashlarini o'rganish chog'ida talabalarning o'quv materiali bo'yicha quyidagi tayanch tushunchalarning aniqlay olishlari ularning bu borada muayyan ko'nikmalarga ega ekanliklaridan dalolat beradi:

Xo'jailg'or qishlog'i (Kesh viloyatidagi), Ko'ragon, "Temur tuzuklari", shariat, davlatni boshqarish, kengash o'tkazish, podsho va vazirlar, axloq-odob, do'stlik, shirinsuxanlik

**4. Mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish.** O'qituvchi talabalar e'tiborini o'rganilayotgan o'quv materialini mazmuniga ko'ra mustaqil kichik mavzularga ajratishga qaratadi. Bu usulni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad – talabalarda berilayotgan o'quv axborotlar orasidan eng muhim fikrlar yoki qarashlarni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Binobarin, bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarga eng muhim axborotlarni uzata olish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Bu holat o'quvchilarni jismonan toliqishdan saqlaydi.

Ta'lim jarayonida talabalarda mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha mavzu ichida kichik mavzular hosil qilindi.

Misol uchun: Unsurul-Maoliy Kaykovusning pedagogik qarashlarini o'rganish davrida talabalarni taxminan mavzu ichida quyidagi kichik mavzularni hosil qilishga undash maqsadga muvofiqdir:

I. Unsurul-Maoliy Kaykovus va "Qobusnoma" asarining pedagogik fikrlar taraqqiyoti tarixidagi o'rni.

II. "Qobusnoma" asarida juvonmardlik ruknlari va odobi to'g'risidagi qarashlarning yoritilishi.

III. "Qobusnoma" asarida bilim olishga bo'lgan munosabatning ifodalanishi.

IV. Asarida turli kasb egalari ijtimoiy mavqeining baholanishi.

V. "Qobusnoma" asarida axloq tarbiyasi asoslarining bayon etilishi.

VI. "Qobusnoma" asarida ota-onaning oiladagi o'rni masalalarining tahlil etilishi.

VII. "Qobusnoma" asarida do'st tutish odobining yoritilishi

**5. Turkumlashtirish.** Pedagogik bilimlarni muayyan yo'nalishlar, jihatlar yoki muhim belgilariga muvofiq ajratish ularning talabalar tomonidan ma'lum tizim asosida o'zlashtirilishiga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik bilimlarni turkumlashtirish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha pedagogik bilimlar turkumlashtirildi.

M: turkumlashtirish usulidan foydalanish "Pedagogika tarixi"dan Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari o'rganishda quyidagi andozaga muvofiq qo'llanilishi mumkin (1-jadval):





**4-jadval. Alisher Navoiyning insoniy sifatlarhaqidagi qarashlari**

Insoniy sifatlar haqidagi qarashlar		
Ma'naviy- axloqiy sifatlar	Salbiy sifatlar	O'qituvchi va uning odobi


**6. Qayta bayon etish.** O'rganilgan mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch so'zlar yordamida o'quv materialini mazmunini o'z fikrlari bilan ifodalash. Misol uchun Yan Amos Komenskiyning pedagogik qarashlarini o'rganish jarayonida quyidagi tayanch tushunchalar talabalar tomonidan o'rganilgan mavzu mazmunini qayta bayon etilishiga imkon beradi:

1952 yil, "Ugorskiy Brod" (Moraviya), "Chex qardoshlari", "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" (1631 yil), "Buyuk didaktika" (1632 yil), "Pan sofiya" ideyasi, "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" (1648 yil), dunyoqarash, tarbiya yo'nalishlari, yosh davrlari, didaktik tamoyillar, sinf-dars tizimi, axloqiy tarbiya, o'qituvchi shaxsi.

**7. Sxemalashtirish.** Talabalar o'rganilgan o'quv materialini bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvirlar asosida namoyish etadilar.

Ta'lim jarayonida talabalarda sxemalashtirish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha sxemalar yaratildi. Shuningdek, rasm, shakl va tasvirlarning yaratilishiga ham erishildi.

M: Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlarini o'rganish chog'ida talabalarning quyidagi tarzda sxemalarning ishlay olishlari kutilgan maqsadga erishilganlikni ifodalaydi:



11-rasm. Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari

**8. Mavjud tushunchalarni boyitish.** Mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan mavjud tushunchalarga mazmunan yaqin bo'lgan pedagogik yoki psixologik terminlarni qo'shish. M: "So'fiylik ta'limotida yetuk inson muammosining talqin etilishi" mavzusini o'rganish chog'ida o'quv materialining mohiyatini quyidagi tushunchalar yordamida yetarli darajada anglash mumkin:

Sunniylik, shialik, tavhid, so'fiylik, ma'naviy komillik,  
Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya tariqati

Ushbu tushunchalar mohiyatini o'rganish asosida talabalar qo'shimcha ravishda komil inson, komillikning ijtimoiy ahamiyati, ijtimoiy omillarning shaxs kamolotiga ta'siri kabi tushuncha va iboralarni ham o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**9. Pedagogik vaziyatlarni hal qilish.** Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkur va kreativlik sifatlarini shakllantirishda ularning turli pedagogik vaziyatlar yechimlarini topish layoqatiga ega bo'lishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagicha ish ko'rildi:

- 1) talabalar turli mazmundagi pedagogik vaziyatlar bilan tanishtirildi;
- 2) ularning taqdim etilgan pedagogik vaziyat yuzasidan mushohada yuritishlariga imkon berildi;



3) muayyan talabning pedagogik vaziyatlarning ijobiy yechimlarini topish borasidagi shaxsiy qarashlari tinglanib, auditoriyada pedagogik vaziyat yechimining qay darajada to'g'ri ekanligiga baho berildi.

Talabalarning pedagogik vaziyatlar yechimini topishlarida L.V.Zanina hamda N.P.Menshikova<sup>24</sup>larning g'oyalariga tayanishlari tavsiya etildi. Ya'ni, ular bu jarayonda:


- 1) dastlab pedagogik vaziyat yechimini topishga yordam beruvchi bir necha farazlarni ilgari surishlari;
- 2) harakat yo'nalishlari, faoliyat turlari, shuningdek, pedagogik ta'sir yoki tarbiya metodlarini belgilashlari;
- 3) ularning natijaviyligini taxmin qilishlari;
- 4) yechimni topishga yo'naltirilgan faoliyatning bir necha variantlarini ishlab chiqishlari;
- 5) samarali usullarni tanlashlari;
- 6) maqbul tashkiliy shakllarni belgilashlari mumkinligi ta'kidlab o'tildi.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda bir qator interfaol metodlardan foydalanish bu borada samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Quyidagi interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra shaxsda vaziyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, muammoni tahlil qilish, sintezlash, tizimning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikni topish, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi. Quyida ulardan ayrimlari namuna sifatida keltiriladi:

**1. "AJIL" ("Amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar") strategiyasi** talabalarda ijodiy faoliyat malakalarini, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi. "Ajil" texnologiyasini o'quv jarayonida "Jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish" mavzusidagi suhbat yoki "Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman" nomli blis-o'yin o'tkazilgandan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Strategiyani qo'llashda quyidagi taxlitda ish ko'riladi:



<sup>24</sup> Zanina L.V., Menshikova N.L. Osnovy pedagogicheskogo masterstva /Ucheb. posobie dlya stud. ped. vuzov. – Rostov-na-Donu, Feniks, 2003. – 288 s.



**2. “Aqliy hujum” strategiyasi** talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalariidan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg'ulotda strategiyani qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- 1) talabalarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish;
- 2) talabalarning har bir fikri rag'batlantirilib boriladi, fikrlar orasidan samaralisi tanlab olinadi; fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi;
- 3) har bir talaba o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin; fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Strategiya qo'llanilganda talabalarning faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, talabalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarni himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi; metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechishdir).

**3. “Baliq skeleti” grafik organayzeri (GO)** talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o'qituvchi talabalarni GOni qo'llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) talabalar kichik guruhlariga biriktiriladi;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar o'z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
- 5) jamoa guruhlarining yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi

**4. “Bumerang” strategiyasi.** Texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so'zlab berish, fikrlarni erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko'p bilimga ega bo'lish, o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U o'qituvchiga tarqatma materiallarning o'quvchilar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali o'zlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini ta'minlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin.

**5. “Venn diagrammasi” GO** talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish, tushunchalarni sintezlash ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Talabalar



tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish samaralidir.

**6. "Zinama-zina" strategiyasi** talabalarda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u talabalarda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko'rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

**7. "Insert" GO** yangi mavzu bo'yicha talabalarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**8. "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari") metodi** (ingl. "case" – metod, "sudy" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

**9. "Kichik esse" strategiyasi** kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U talabalar tomonidan o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Kichik essenini yaratishda talabalar mavzu g'oyalari umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladi.

**10. "Klaster" GO** ("Klaster" – g'uncha, to'plam, bog'lam) puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

**11. "Konseptual jadval" GO** talabalarni o'rganilayotgan mavzu (masala, muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlar bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda talabalarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

**12. "Mantiqiy chalkash zanjir" strategiyasi** tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish,





yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni "ulash"dan iborat.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda turli didaktik, texnik va axborot-kommunikatsion vositalardan ham samarali foydalanish mumkin.

#### Nazorat savollari:

1. "Kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. "Kreativ pedagogika"ning maqsadi nimadan iborat va u qanday vazifalarni hal qiladi?
3. Pedagogik kreativlikka qanday sifatlar xos?
4. Pedagoglarda qanday ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo'lishi zarur?
5. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud?

#### 4-MAVZU: O'QUV DIDAKTIK VA METODIK TA'MINOT: TUZILISHI VA TARKIBIY QISMLARI

1. "Didaktik ta'minot" tushunchasi va uning metodik ta'minot tushunchasi bilan aloqadorligi.

2. Didaktik ta'minotning tuzilishi va tarkibiy qismlari.

3. O'quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashish. Kreativ yondashuv - o'quv manbalari (ma'ruza matni, o'quv darsligi, o'quv va metodik qo'llanma hamda o'quv metodik majmualar)ni samarali yaratishning muhim omili.

*Tayanch tushunchalar: Didaktika, didaktik ta'minot, metodik ta'minot, o'quv dasturlari, o'quv manbalari, o'quv materiallari, tamoyillar, o'quv materiallarini samarali tayyorlash tamoyillari, didaktik ishlanmalar, didaktik ishlanmalarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar*

**1. "Didaktik ta'minot" tushunchasi va uning metodik ta'minot tushunchasi bilan aloqadorligi.** So'nggi vaqtlarda pedagogik adabiyotlarda va ta'lim amaliyotida "didaktik ta'minot" hamda "metodik ta'minot" tushunchalari keng qo'llanila boshlandi. Biroq mazkur tushunchalarni izohlashga doir ham xilma-xil yondashuvlar mavjud. Hatto ko'pgina hollarda ularni sinonim tushunchalar sifatida qo'llash holati ham uchraydi. Biroq ularning ichki va tashqi mantig'ida ayrim o'ziga xosliklar borki, bularni hisobga olish zarur. Quyida mazkur tushunchalarning mazmun va mohiyatiga batafsil to'xtalib o'tamiz.

"Didaktik ta'minot" tushunchasi bir qarashda bir oz g'aliz eshitiladi. Chunki odatda pedagoglar "didaktika" deb nomlangan pedagogikaning sohasi borligini, u ta'lim jarayoni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari o'rganuvchi soha ekanligini yaxshi bilishadi. Biroq "didaktik ta'minot" atamasining nimani anglatishini hamma ham birdek to'g'ri tushunavermaydi.

*Didaktik ta'minot* deganda psixologiya, pedagogika, valeologiya, informatika va boshqa fanlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv axborotlari mazmuni xilma-xil turlarining didaktik maqsad va vazifalariga ko'ra o'zaro aloqador majmui.



*Didaktik ta'minot* – bu ma'lum bir qonuniyat, tamoyillar va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga asoslanadigan shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalardir.

*Didaktik ta'minot* shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirish uchun didaktika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fan sohalarining muvafaqqiyatlariga asoslangan holda tashkil etilgan o'quv-uslubiy majmuani anglatadi.

***Didaktik ta'minot quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:*** 1) nazorat topshiriqlari, test savollari bankining mavjudligi; 2) o'quv fani bo'yicha didaktik materiallarning mavjudligi: audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, jadval, slaydlar, tarqatma materiallar; 3) referat ishlari mavzulari.

Didaktik ta'minot o'quv kursini o'zlashtirish uchun axborotlarning to'liqligi va yetarli hajmda bo'lishi, pedagog va talabalarning birgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborotlarning originalligi va tartibga solinganligi bilan xarakterlanadi. U ta'lim oluvchining axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va korreksiyalash maqsadida foydalaniladi va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

***Metodik ta'minot*** talabalarning auditoriya ishlarining barcha shakllari (ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlari) va auditoriyadan tashkari ish shakllari (mustaqil ta'lim, amaliyotning barcha turlari, nazorat, kurs va bitiruv malakaviy ishlari) hamda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilishning turli shakllarini o'z ichiga qamrab oladi.

**“Didaktik va metodik ta'minot” tushunchalarining qiyosiy tahlili**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Didaktik ta'minot</b>	<b>Metodik ta'minot</b>
Mazmun	O'zaro aloqador xilma-xil o'quv axborotlari majmui	Maxsus ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan o'quv-uslubiy majmua
Maqsad	O'qituvchi va talabalar o'rtasida faol axborot almashishga doir o'zaro harakatni tashkil etish uchun sharoit yaratish	Pedagogik faoliyatni doimiy takomillashtirib borish uchun sharoit yaratish
Funksiya	Tashkiliy, ta'limiy, nazorat va kommunikativ	Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash, umumlashtirish va translyatsiya, kundalik metodik yordam



Tuzilishi	O'quv dasturlari, o'quv-metodik nashrlar, didaktik materiallar, o'qitish vositalari	O'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim ishlanmalari, nazorat va baholash uchun topshiriqlar, fanni o'qitishga doir tashkiliy ko'rsatmalar
-----------	---	--

Fanlarning metodik ta'minotining asosi sifatida o'quv-uslubiy majmua aks etadi O'quv-uslubiy majmua talabalarning mustaqil ishlashini samarali tashkil etish va qo'llab-quvvatlash hamda o'quv fanlarini o'qitishda uzluksizlikni saqlash imkonini beradi.

*Mustaqil ish* – ta'limni tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, bunda talabalar o'z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yib, faoliyatni rejalashtiradi va uni amalga oshiradi hamda o'z-o'zini baholaydi.

*Mustaqil ish* – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limni tashkil etish shakli. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabalarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

Mustaqil ishlarning maqsad va vazifalari:

*Professor-o'qituvchining roli* talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil ishni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

*Talabaning roli* professor-o'qituvchi rahbarligida tashkil etish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning optimal yo'lini izlab topishga qobiliyatli ijodkor shaxs bo'lishda aks etadi.

*Mustaqil ish quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga imkon berishi lozim:*

- 1) talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- 2) ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;
- 3) talabalarda umumiy va kasbiy layoqatlarni rivojlantirishga imkon berish;
- 4) ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

*Auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ishlarni ikki turga ajratish mumkin:* 1) ma'ruza mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlar; 2) amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan mustaqil ishlar.

*Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlarga esa quyidagilar kiritish mumkin:* 1) konspektlashtirish; 2) adabiyotlardan referat tuzish; 3) kitob va maqolalarga annotatsiya yozish; 4) doklad, referat va nazorat ishi.

*Mustaqil ishlarni tashkil etishda yangi axborotlardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:*



1. Tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnoma tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish.

Axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi:

- referat-sharhlar yozish;
- mavzu bilan bog'liq saytlarga taqriz yozish;
- ma'lum mavzuga doir tarmoqdagi mavjud referatlarni tahlil etish, ularni baholash;
- ma'ruza rejasiga doir o'z variantini yoki uning ma'lum bir qismini yozish;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish;
- amaliy mashg'ulotlardan lavha tayyorlash;
- mavzuga doir doklad tayyorlash;
- mavzuga doir munozara o'tkazish;
- professor-o'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash.

2. Tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferensiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko'rinishda tashkil etish mumkin: o'tkazilgan yoki o'tkazilishi ko'zda tutilgan ma'ruzalarni muhokama qilish; mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferensiya(chat)da muloqotni amalga oshirish.

3. Tematik web-sahifa, web-kvest(topshiriq)lar yaratish – html-muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda talabalar tomonidan bajarilgan referatlar va retsenziyalar, ishlarni joylashtirish; mavzuga doir adabiyotlar ro'yxatini chop etish; individual va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli web-sahifalarni yaratish; mavzu bo'yicha ishlash uchun web-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

**2. Didaktik ta'minotning tuzilishi va tarkibiy qismlari.** Oliy ta'lim muassasasidagi o'quv ishlari shakllari orasida mustaqil ishlar asosiy va muhim o'rin tutadi. Kuzatishlarimiz va tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni tashkil etish va o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Biroq fanlar bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish va uning tekshirilib, baholanishidan iborat bo'lib qolmoqda. Boshqacha aytganda, mustaqil ishlarni tashkil etish va o'tkazish talabalarning individual va ijodiy potensialini yuzaga chiqarishga to'liq imkon bermayapti. Ana shu muammoni hal etishda esa pedagogik fasilitatsiya imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash vazifalari o'ziga xos bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:



-talabalarning intellektual, jismoniy, ma'naviy-madaniy rivojlanishida muammolarning vujudga kelishidan ogoh bo'lish;

-talabalarning rivojlanishlari, o'qishlari, ijtimoiylashishlarida vujudga keladigan dolzarb muammolarni yechishga ko'maklashish, jumladan, o'quv-biluv jarayonidagi, ta'lim yo'nalishlari va bo'lg'usi kasblarini tanlashdagi, hissiy kechinmalaridagi, tengdoshlari, ota-onalari, o'qituvchilari bilan munosabatlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordamlashish;

- o'quv dasturlarini pedagogik-psixologik nazariyaga asoslangan holda tuzish;
- talabalar, o'qituvchilar va ota-onalarning psixologik bilimlarini kengaytirish

kabilar.

O'qituvchilar talabalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- pedagogik muhitni sog'lomlashtirish;
- talabalarning rivojlanishlarini yakka va guruhli tarzda tashxislash;
- talabalarga yakka tartibda va guruhli tarzda maslahatlar berish;
- talabalarni yakka va guruhli tarzda rivojlantiruvchi ishlarni tashkil qilish;
- talabalar bilan yakka va guruhli tarzda ular faoliyatini yaxshilash, tuzatish

bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish;

- ota-onalar, o'qituvchilar, talabalar va o'quv yurti ma'muriyati bilan ularning pedagogik-psixologik bilimdonliklarini oshirish maqsadida ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;

- o'quv dasturlari, qo'llanmalar, dars loyihalari, ta'lim muhiti va pedagogik jamoaning kasbiy faoliyatini muntazam ekspertizadan o'tkazish kabilar.

Hozirgi kundagi sharoitlarning yaxlitligiga ko'ra (iqtisodiy, moliyaviy va hakovolar) ta'limda yanada yangi vaziyatlarga duch kelinmoqda. Ta'limdagi sharoitlarning shakl va mexanizmlarining o'zgarishiga zaruriyat tug' ilmoqda. Ayniqsa, kasbiy ta'lim sohasida bunday holatni yaqqol kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan fasilitatsiya jarayoni pedagogika va psixologiyada tobora qiziqarli xarakter kasb etib boaraveradi.

Fasilitatsiya so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, facilitate – yordam berish, yengillashtirish, kuchaytirish degan ma'nolarni anglatadi. Fasilitatsiya – talabaga ijobiy ta'sir etish yo'li bo'lib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, ta'lim oluvchilarda o'z kuchlariga ishonchni oshirish va mustaqil faoliyatlarini qo'llab quvvatlashdir.

Hozirgi vaqtda fasilitatsiyaning ijtimoiy va pedagogik turlari ajratilib ko'rsatiladi. Ijtimoiy fasilitatsiya ijtimoiy psixologik fenomen hisoblanadi. Ijtimoiy fasilitatsiya lotin tilida – “socialis facilitar” – jamiyatni yengillashtirish, degan ma'noni anglatadi. Asosan, ishlab chikarish faoliyatini jadallashtirish, shu bilan birga uning tezligi va sifatini oshirish, boshqa odamlar ishtirokida yoki bellashuv vaziyatlarida qo'llaniladi. Shuningdek ijtimoiy fasilitatsiya tushunchasi shaxs faoliyatining tezligi va samaradorligi, alohida shaxsga yoki guruhga nisbatan





qo'llaniladi. Pedagogik fasilitatsiyada ta'limning (o'qitish, tarbiya) samaradorligi kuchaytiriladi. Kasbiy-pedagogik jarayonda pedagog shaxsining alohida muloqot uslubi qo'llanishi natijasida talaba shaxsining individual rivojlanishi kuzatiladi.

Fasilitatsiyaning yuqorida aytib o'tilgan ikki turini ma'lum shart-sharoitlar bog'lab turadi. Ya'ni, fasilitatsiya har qanday faoliyat, shu jumladan pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi. Fasilitatsiyaning mavjud ikki turi orasidagi asosiy farq shundaki, ijtimoiy sohada rivojlanish sub'ektning xatti-harakatlarini tartibga solish orqali yuz beradi, pedagogik faoliyatda esa pedagogning talabalar bilan alohida muloqot usulini yo'lga qo'yishi va ularning shaxsiga samarali ta'sir eta olishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Fasilitatsiya deganda eng avvalo, guruhiy muammolarni xal etishning samarali texnologiyasi tushuniladi. Fasilitatsiya shunday jarayonni qamrab oladiki, fasilitator mutaxassis barcha guruh a'zolariga ma'qul keladigan, neytral qaror qabul qilinishiga erishishi, ya'ni kichik guruhlariga muammolarni xal etishga yordam berishi talab etiladi. Mazkur yondashuv pedagogning yetakchi faoliyatini ta'minlab beruvchi, individual ongni, mustaqillikni rivojlantiruvchi, shaxsiy professional usulda yangi bilimlarni hosil qilishda ta'lim oluvchilarga tanlash huquqini berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik fasilitatsiya konsepsiyasi bir qator sharoitlarni yaratish g'oyasini ilgari suradi: a) talabalar uchun o'qishning ahamiyatli bo'lishi; b) o'qituvchining kongruentlilik; v) psixologik xavfsizlik va psixologik erkinlik.

Faqatgina talaba uchun ahamiyatli ta'limina samarali hisoblanib, u ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlarini ta'minlab qolmasdan, ularning ichki hissiy-kognitiv tajribasining o'zgarishiga ham olib keladi.

O'qituvchining kongruentligi uning talabalarga nisbatan munosabatini aniqlab beradi, u ta'lim oluvchilar bilan birgalikda o'zaroharakatlarni amalga oshiradi. Talabalarni qanday vaziyatda bo'lishiga qarab, ularning mavjud holatga munosabat hissini ongli tarzda qabul qila oladi. Bu esa o'qituvchiga ta'lim oluvchilar bilan ochiq munosabatda bo'lish imkonini beradi. Fasilitatsiya jarayonidagi psixologik xavfsizlik shaxsni qadriyat ekanligini tushunib yetish va tashqi baholash mavjud bo'lmagan sharoitni yaratib bera olishda namoyon bo'ladi. Psixologik mustaqillik talabalarni kreativligini va ularning o'zlarini to'la namoyon eta olish xususiyatini shakllantirishni ta'minlaydi. Fasilitatsiya fikrlarni, hissiyotlar va xolatlarni ochilishiga imkon berib, samimiy ishonch, kutilmagan obraz uyg'unligi, ijodiy tushunish va anglashni ta'minlaydi.

Ta'lim sharoitida fasilitatsiyani to'g'ri tashkillashtirishga rioya etish, quyidagi sifatlarning shakllanishiga turtki bo'ladi: mustaqillik, ongli faollik, kasbiy yo'nalganlik va boshqalar. Bularning barchasi kelajakda talabalarning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarida muhim rol o'ynaydi.


O'qituvchi-fasilitator "o'qituvchi-talaba" va "talaba-talaba" hamkorligi asosida ta'lim samaradorligini oshiradi. Mazkur jarayonda ichki guruhiy o'zaroharakatlarning quyidagi shakl va usullari muhimdir: ta'lim oluvchilarning



bir-birlari bilan o'zaro fikr almashuvi, muammoni umumiy yaxlitlikda tushuna olishlari, vaziyatni hal etib, original xulosa chiqara olishlari kabilar.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tamoyiliga tayanish zamonaviy ta'lim tizimida eng maqbul yo'l hisoblanadi. O'quv jarayonida ana shunday tarzda tashkil etiladigan talabani mustaqil ishini samarali amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi va bu jarayonda o'qituvchi ham bevosita ishtirok etadi. Mustaqil ishni tashkil etishda shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv talabani shaxsiy ahamiyatga molik shunday darajaga ko'taradiki, bu hol, o'z navbatida, mustaqil ishning har qanday turida faollik va ijodkorlikning kuchayishiga imkon yaratadi. Natijada mustaqil ish tizimi tashkiliy jihatdan murakkab yaxlitlik, ya'ni "qismlarining o'zaro ta'siri ularning o'zidan ko'ra muhimroq" bo'lgan yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi.


Didaktik ta'minotning tuzilishi va tarkibiy qismlarini quyidagi rasmda tasvirlangan.



**1-rasm. Didaktik ta'minotning tuzilishi va tarkibiy qismlari.**

**3. O'quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashish. Kreativ yondashuv - o'quv manbalari (ma'ruza matni, o'quv darsligi, o'quv va metodik qo'llanma hamda o'quv metodik majmualar)ni samarali yaratishning muhim omili.** Bir qarashda ta'lim jarayonini kreativ g'oyalar asosida tashkil etish o'quv dasturida belgilangan talablardan chetga chiqishdan tasavvur qoldiradi. Biroq, kreativlik, ijodiy yondashish o'quv mashg'ulotlarini mavjud DTSga moslashtiradi. Qolaversa, o'qituvchilardan o'qitish jarayoniga nisbatan kreativ, ijodiy yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladigan metod, usul va vositalar mashg'ulotlarni metodik jihatdan samarali, to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan ta'lim mazmunini shakllantirish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi (2-rasm):



## 2-rasm. Ta'lim mazmunini shakllantirish bosqichlari

O'quv materialini o'zlashtirish bosqichida ta'lim mazmunining o'quv modul (fan)lari bo'yicha yaratilgan DTS, o'quv rejasi va o'quv dasturi kabi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, o'quv manbalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyanoma va kabilar)da aks etishi ta'minlanadi.

Ta'lim mazmuni davlat ta'lim standarti, o'quv rejaları mazmunida namoyon bo'ladi.

**Davlat ta'lim standartlari** – umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan me'yoriy hujjat.

**O'quv rejasi** - me'yoriy hujjat bo'lib, unda har bir o'quv predmetining mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatib beriladi

Ta'lim mazmuni o'quv dasturlarida yanada batafsil yoritiladi.

**O'quv dasturi** – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmunini, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat

Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi mezonlar sanaladi.

Pedagoglarda ham kreativlik sifatlarining to'laqonli namoyon bo'lishi o'quv dasturlari bilan ishlashda ham ko'zga tashlanadi. O'quv dasturlari orasida mualliflik o'quv dasturlari pedagogning kreativlik sifatleri, kasbiy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan ijodiy yondashuvi, ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirish yo'lida tashkil etayotgan kasbiy-ijodiy faoliyati mazmunini o'zida to'laqonli ifoda eta oladigan ta'limiy xarakterdagi dasturdir.

**Mualliflik o'quv dasturlari** – 1) talabalarning ehtiyoj, qiziqish, xohish-istaklarini inobatga olgan holda o'quv moduli (fani) doirasida muayyan mavzu (masala)ni chuqur o'rganish yoki ma'lum muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan o'quv dasturi; 2) o'quv dasturlarining bir turi

Bu turdagi dasturlarlar ham davlat ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda o'quv fani qurilishining o'zgacha shaklda bo'lishi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan muallif nuqtai nazarining aks etishi bilan boshqa o'quv



dasturlaridan farqlanadi. Bu turdagi dasturlar tegishli fan sohasi bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi taqrizlariga ega bo'lishi va ta'lim muassasalarining Pedagogik kengashlari tomonidan tasdiqlanishi zarur<sup>25</sup>. Mualliflik o'quv dasturlarini ishlab chiqishda pedagog erkin, mustaqil ravisha o'zining kreativlik layoqatini to'la namoyon etish imkoniyatiga ega. Odatda mualliflik o'quv dasturlaridan talabalarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy yoki maxsus) kurslar tashkil etishda, to'garaklar, ilmiy jamiyatlar, "Fan klublari", texnik va badiiy ijodiyot markazlari faoliyatida samarali qo'llaniladi.

Qolaversa, o'quv fanining mazmunini shakllantirishda har bir pedagog 15 foiz miqdorda ijodiy yondashgan hola unga o'zgartirish kiritish imkoniyatiga ega. Binobarin, o'quv dasturlarining innovatsion, kreativ xarakter kasb etishi talabalarda ta'lim olishga qiziqishni kuchaytiradi, ularning o'quv-bilish faoliyatining faollashuvini ta'minlaydi.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi.

O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rin tutadi.

**Darslik** – muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi

O'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan barcha akademik litsey va professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalari (universitet, akademiya)lar uchun tavsiya etiladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, talabalarning ehtiyojlarini qondira olishi, qiziqishini oshirishi, bilim, ko'nikma va malakalarini boyitishi zarur. Darslikda bayon etilayotgan o'quv axborotlari lo'nda, tushunarli va vizual bo'lishi, talabalarning estetik ehtiyojlariga mos kelishi kerak.


Darslik barqaror, puxta asoslangan tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi lozim. Mohiyatan darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo'yiladigan talablar turlicha bo'lsa-da, ular orasida umumiy xususiyatga ega talablar ko'p. Yetakchi xorijiy mamlakatlarda muqobil darsliklarning nashr etilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning boisi pedagog va talabalarga ular orasidan o'zlari uchun eng maqbul, amaliy ahamiyatga ega bo'lganlarini tanlab olish imkoniyat yaratishdir. Respublikamizda, muqobil darsliklarni yaratishda faollik bir qadar sust bo'lgani holda muqobil yordamchi adabiyotlar (o'quv, metodiv va o'quv-metodik qo'llanmalar)ni yaratish borasida pedagoglar faollik ko'rsatishmoqda.

---

<sup>25</sup> Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.



O'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma'lum tamoyillar asosida ish yuritiladi. Ayni vaqtda pedagogika amaliyotida M.Karne tomonidan asoslangan tamoyillarga rioya etilmoqda (3-rasm):



3-rasm. Ta'lim dasturlarini yaratish tamoyillari

“Kreativlik o'quv-bilish faolligi sifatida ham tahlil etilishi mumkin. Binobarin, ba'zi o'quvchilar tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlashni, boshqalar esa aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishni afzal ko'radi, uchinchi guruh vakillari esa tabiatan kreativ va tanqidiy fikrlashga moyil bo'ladi. Shunga asoslangan holda o'qituvchilar har bir talabani qiziqishi, qobiliyati, moyilligi, shuningdek, ularning o'quv-bilish uslubidan kelib chiqqan holda” (Tomlinson, 1999) ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'quv manbalarini shakllantirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ya olishlari kerak.


Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativligi yana bir holatda – elektron axborot-ta'lim resurslari (EATR)ni yaratishda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

**EATR** – o'quv fan (modul)lari bo'yicha tizimlilik, izchillik, o'zaro muvofiqlik va yaxlitlik asosida shakllantirilib, o'quv materiallarini to'liq yoki qisman qamrab olgan holda kompyuter texnologiyasi yoki Internet axborot tarmog'ida maxsus (alohida) saytda joylashtirilgan elektron nashrlar majmui

EATR bosma o'quv-metodik majmualar kabi o'zining tarkib asosiga ega bo'ladi. Ushbu tarkibiy asos bir nechta elementlarni qamrab oladi. EATRning tarkibiy asosi quyidagi elementlar<sup>26</sup>dan tarkib topadi (4-rasm):

<sup>26</sup> Web texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish / Muslimov N.A., Sayfurov D.M., Usmonboeva M.H., To'raev A.B. – Toshkent: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 6-b.





EATR ta'lim jarayonida quyidagi imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun talab etiladigan sharoitni yaratadi<sup>27</sup>:

- 1) ta'limiy vazifalarni shakllantirish;
- 2) o'quv materiali mazmunini bayon qilish;
- 3) bilimlarni qabul qilishni tashkil etish;
- 4) qaytar aloqa;
- 5) talabalarning bilish faoliyatini nazorat qilish;
- 6) talabalar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning navbatdagi bosqichiga tayyorgarlik ko'rish (talabalarni mustaqil ta'lim olishga, qo'shimcha o'quv adabiyotlarini mustaqil o'qib-o'rganishga yo'naltirish)

**O'quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashuv va ularni samarali tayyorlash mezonlari.** Ta'lim jarayonidagi kreativlik talabalarda o'qishga qiziqishlarini orttiruvchi kreativ savollar tuzish, turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, ramziy ifodalardan foydalanish, ta'lim oluvchilarga bayon etilayotgan o'quv axborotlari bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan g'oyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlilikni topish kabi vazifalarni berish, kichik kichik guruhlarda ishlashlarini ta'minlash kabi harakatlarda aks etadi.


O'qituvchilar tomonidan talabalarning kreativ fikrlashlariga erishish, o'quv-bilish faoliyatlarida ijodiy mahsulotlarni yaratishlarini ta'minlashga undash,

<sup>27</sup> O'sha manba. – 8-b.



rag'batlantirish qanday natijalarga olib kelgan bo'lardi? Xuddi shu holat o'qituvchilar izlayotgan hodisa bo'lmasmi?<sup>28</sup>.

Ma'lumki, ta'lim mazmunini ochib berishga yo'naltirilgan o'quv materiallari bir nechta turga ajratiladi. Ular (5-rasm):




O'quv materiallari talabalarning umumiy va kasbiy bilimlarini boyitish bilan birga ularda dunyoqarashni boyitish, tasavvurni kengaytirish, ijtimoiy va tabiiy borliqqa ijobiy munosabatni shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur. Shu sababli pedagoglar o'quv materiallarini tayyorlashga ijodiy yondashish bilan birga muayyan tamoyillarga rioya etishlari zarur. Ya'ni (6-rasm):

<sup>28</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.



Ushbu tamoyillarga muvofiq tayyorlanadigan o'quv materiallari mutaxassislik yo'nalishi va ixtisoslik sohasidan qat'iy nazar barcha talabalarning ehtiyojlarini to'la qondira oladi.




**O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar.** Shaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. O'quv materiallarini talabalarga taqdim etishda savolning "Agarda ...?" deb qo'yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham ob'ektiv, ham sub'ektiv fikrlash ko'nikmalarini samarali o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Ken Robinson (2011 y.) ta'kidlaganidek, kreativlik talabalarida "nafaqat yangi g'oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o'quv masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko'nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang'ich g'oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo'lsa ulardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi. Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, ta'lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta'lim olish, o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan talabalar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha talabalar bilan jonli, qiziqarli, jo'shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo'llaniladi. Qolaversa, kreativ xarakterga ega mashg'ulotlarni nafaqat san'at, madaniyat sohalari yo'nalishlarida, shu bilan birga barcha istalgan soha (biznes, iqtisodiyot, huquq, pedagogika, psixologiya, qurilish, qishloq xo'jaligi, muhandislik, sanoat va b. sohalari) bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar bilan ishlash jarayonida ham birdek samarali tashkil etish mumkin.



O'qituvchilar, shuningdek, ta'lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashishda nafaqat o'quv fanlarini o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan talabalarga, balki ko'proq e'tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo'lmagan ta'lim oluvchilarga ham birdek e'tiborni qaratishlari zarur<sup>29</sup>.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv materiallarining maqsadga muvofiq, g'oyaviy mazmunga ega va sifatli tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlari uchun uch turdagi didaktik materiallar tayyorlanadi (7-rasm):



Pedagoglarning o'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko'rishlari kutilgan ta'limiy natijaning qo'lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:

- aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi;
- talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- o'quv axborotlarining asoslanganligi;
- talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish imkoniyatiga egalik;
- talabalarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;
- talabalarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy ahamiyat kasb etishi;
- estetik jihatdan sifatli bo'lishi;
- noaniq tushuncha va iboralardan holi bo'lishi;
- aniq natijani kafolatlay olishi;
- turli vaziyatlarda qo'llay olish imkoniyatiga egalik;
- mavjud BKMni mustahkamlashga xizmat qilishi va b.

<sup>29</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.



O'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o'quv manbalari (darslik, o'quv, metodik va o'quv-metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma'lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari mumkin. Bu o'rinda olingan ma'lumotlarning ishonchliligi muhim. Shu sababli pedagoglar didaktik materiallarni tayyorlashda o'quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e'tiborni qaratishlari zarur. Binobarin, ilmiy asosga ega dalillar bilan boyitilgan didaktik materiallar talabalarning umumiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Demak, pedagoglarning o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari talabalarning umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog'liq. O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashda ham pedagoglar zamonaviy talablar.

### **Nazorat savollari**

1. Didaktika va uning asosiy kategoriyalari.
2. "Didaktik ta'minot" tushunchasi va uning metodik ta'minot tushunchasi bilan aloqadorligi.
3. Didaktik ta'minotning tuzilishi
4. O'quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashuv o'zida nimani ifodalaydi?
5. O'quv manbalarini yaratishga kreativ yondashishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
6. O'quv materiallarini kreativ yondashuv asosida tayyorlash qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz?
7. O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar nimalarda iborat?





**IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**  
**1-AMALIY MASHG'ULOT.**

**MAVZU: Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralashda kreativ yondashuvning ahamiyati (2 soat).**

**Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar to'plash va ularni saralashda kreativ yondashishga oid malakalarini rivojlantirish.

**O'quv va moddiy ta'minot:** kompyuter va videoproektor; tarqatma material, mashg'ulotga tegishli prezentatsiya slaydlari.

**1-topshiriq.** Nazariy mashg'ulotlar ma'ruza va ularning turlari (quyidagi jadval asosida)ni aniqlang. Mazmunini bayon qiling!

Ma'ruza va uning turlari			
Kirish ma'ruza	Axborotli ma'ruza	Ma'ruza-konferensiya	Ma'ruza-konsultatsiya

**2-topshiriq.** Amaliy mashg'ulotlar va ularning turlari (quyidagi jadval asosida)ni aniqlang. Mazmunini bayon qiling!

Amaliy mashg'ulot va uning turlari		
Amaliy mashg'ulot	Seminar mashg'uloti	Laboratoriya mashg'uloti



**3-topshiriq.** Nazariy, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablarni aniqlang!

<b>Nazariy, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar</b>			
<b>Ma'ruza</b>	<b>Amaliy mashg'ulot</b>	<b>Seminar mashg'uloti</b>	<b>Laboratoriya mashg'uloti</b>

**Mashg'ulotning yakuni**

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

**2-AMALIY MASHG'ULOT.**

**MAVZU: O'quv axborot (ma'lumot)larini samarali izlash - pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini ko'rsatuvchi muhim holat ekanligi (2 soat).**

**Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar to'plash va ularni saralashda kreativ yondashishga oid malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot individual shaklda kompyuter xonalarida tashkil etiladi.

**O'quv va moddiy ta'minot:** *kompyuter va videoproektor; tarqatma material, mashg'ulotga tegishli prezentatsiya slaydlari.*


**Amaliy mashg'ulotning borishi.** Tinglovchilar Internet tarmog'idan foydlangan holda Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:**


1 qadamni bajaring!



2 qadamni bajaring.



3 qadamni bajaring.





Tinglovchilar ushbu topshiriqlarni yakka tartibda bajarish asosida Nazariy mashg'ulotlar uchun ma'lumotlarni to'plashni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulot uchun ham shu ketma-ketlikda o'quv materiallar to'plash imkoniyati tushuntiriladi.

1-topshiriq. Internet tarmog'idan nazariy mashg'ulotlar uchun kerakli bo'lgan ilmiy pedagogik manbalarni (kitoblar) qidiring va ko'chirib oling!

2 topshiriq. Internet tarmog'idan amaliy mashg'ulotlar jadvallar, sxemalar, rasmlar qidirish ishlarini mustaqil bajaring.

3 topshiriq. Internet tarmog'idan nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun taqdimot tayyorlashni mustaqil bajaring.

### **Mashg'ulotning yakuni**

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

## **3-AMALIY MASHG'ULOT**

**MAVZU: Mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish mezonlari (2 soat).**

**Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish malakalarini rivojlantirish.

**O'quv va moddiy ta'minot:** *kompyuter va videoproektor; tarqatma material, mashg'ulotga tegishli prezentatsiya slaydlari.*

**1-topshiriq.** Nazariy va amaliy mashg'ulotlar mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini aniqlang. Mazmunini bayon qiling!

**“Toifalash” jadvali** talabalarda tizimli fikrlashni, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirishni, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar toifali sharhlashni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Aqliy hujum /klaster tuzish / yangi o'quv materialini bilan tanishishdan so'ng, kichik guruhlarda, olingan ma'lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar. Toifalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtiradilar.


<b>Toifalash jadvali</b>		
<b>Ilmiy</b>	<b>Dunyoqarash</b>	<b>Dunyoqarash tarkibiy tuzilmasi</b>




Yuqori darajadagi bilimdonligi. Ilmiy tafakkurga egaligi. Ilmiy ijodiy faolligi. Yaratuvchanlik qobiliyati. Kashfiyotchilik qobiliyati.	Ilmiy dunyoqarash; Oddiy dunyoqarash; Ijtimoiy-g'oyaviy; Falsafiy; Huquqiy va ekologik.	Bilim; G'oya va maqsad; Fan yutuqlari; Diniy tasavvurlari; Qadriyatlar; Ishonch; E'tiqod; Fikr; Hissiyot.
---	---	---

**2 topshiriq.** Nazariy va amaliy mashg'ulotlar mohiyatidan kelib chiqqan holda Ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish. **“Nima uchun”** sxemasi orqali modul muammosining dastlabki sabablari aniqlanadi va **“Qanday”** diagramma yordamida modul yuzasidan muammoning amaliy jihatdan yechimi topiladi.

**“Nima uchun”**



**Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysinuvchi «Qanday?» diagrammasi**







Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

### **Mashg'ulotning yakuni**

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

## **4-AMALIY MASHG'ULOT**

### **MAVZU: NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN DIDAKTIK ISHLANMALAR TAYYORLASHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR.**

**Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda Talabalarning mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish texnologiyalari bo'yicha malakalarini rivojlantirish.

**O'quv va moddiy ta'minot:** *kompyuter va videoproektor; tarqatma material, mashg'ulotga tegishli prezentatsiya slaydlari.*

Nazariy yoki amaliy mashg'ulot uchun o'quv topshiriqlarini shakllantirish. O'quv topshiriqlarining ish qog'ozlarini tayyorlash. O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda keyslar to'plamini shakllantirish. O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda darajali testlar to'plamini shakllantirish. O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda rebus, anagramma, krossvord, skanvord va boshqa boshqotirmalarni tayyorlash. Kreativ yondashuv asosida o'quv mashg'ulotini tashkil etish uchun auditoriya, ma'naviy-ma'rifiy tadbirni tashkil etish uchun auditoriyani jihozlash.

### **Topshiriq**

Tinglovchilar quyida ko'rsatilgan mavzularda ijodiy ish tayyorlaydilar:

1. Nazariy yoki amaliy mashg'ulot uchun o'quv topshiriqlarini shakllantirish.
2. O'quv topshiriqlarining ish qog'ozlarini tayyorlash.
3. O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda keyslar to'plamini shakllantirish.
4. O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda darajali testlar to'plamini shakllantirish.
5. O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda rebus, anagramma, krossvord, skanvord va boshqa boshqotirmalarni tayyorlash.
6. Kreativ yondashuv asosida o'quv mashg'ulotini tashkil etish uchun auditoriya, ma'naviy-ma'rifiy tadbirni tashkil etish uchun auditoriyani jihozlash.

Mavzular tinglovchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Mustaqil ishni bajarishda tinglovchilarga quyidagi *metodik ko'rsatmalar* beriladi:

1. Mavzuni yoritish uchun axborotlarning yetarli bo'lishiga e'tibor qarating.



2. Mavzuni yoritish uchun axborotlarni bosma adabiyotlar, Internet hamda boshqa turdagi OAV materiallaridan olishingiz mumkin.

3. Mavzuni yoritishda mavjud materiallarni shunchaki taqdim etmay, ularni ijodiy yondashgan holda qayta ishlang.

4. Mustaqil ishni referat, sxema, jadval, tasvir, diagramma, klaster, Venn diagrammasi, "Qaror shajarasi" strategiyasi va boshqa ko'rinishlarda tayyorlash mumkin.

5. Mustaqil ishni tayyorlashda uning sifati (mavzuning mantiqiy yoritilishi, ishning to'g'ri rasmiylashtirilishi, titul dizaynining mavzuga mos bo'lishi va ortiqcha bezaklardan holi bo'lishi (ishning o'ziga xos bo'lishi)ga e'tibor qarating.

### **Mustaqil ishni baholash ko'rsatkchilari**

No	Mezonlar	Baho ko'rsatkchilari	Ball ko'rsatkchilari
1.	Mavzuning mohiyati mantiqan ochib berilgan, ish to'g'ri rasmiylashtirilgan, titul dizayni mavzuga mos va ortiqcha bezaklardan holi, ish o'ziga xos (orginal)	A'lo	100- 86 ball
2.	Mavzuning mohiyati mantiqan yoritilgan, biroq, yetarlicha yoritilmagan, ish to'g'ri rasmiylashtirilgan, titul dizayni mavzuga mos, biroq, ortiqcha bezaklar ham mavjud, ishda o'ziga xoslik yetishmaydi	Yaxshi	85-71 ball
3.	Mavzu yetarlicha mantiqan yoritilmagan, ishni rasmiylashtirishda xatolar mavjud, ishda o'ziga xoslik mutlaqo ko'zga tashlanmaydi	Qoniqarli	70-56 ball
4.	Mavzu mohiyati ochib berilmagan, noto'g'ri tasmiylashtirilgan	Qoniqarsiz	55 dan past ball

### **Mashg'ulotning yakuni**

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

### **5-AMALIY MASHG'ULOT.**

**MAVZU: Talabalarining mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish texnologiyalari (2 soat).**

**Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda Talabalarining mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish texnologiyalari bo'yicha malakalarini rivojlantirish.



**O'quv va moddiy ta'minot:** kompyuter va videoproektor; tarqatma material, mashg'ulotga tegishli prezentatsiya slaydlari.

**1-topshiriq.** Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning innovatsion shakllarini quyidagi jadval asosida to'ldiring. Fikringizni bayon qiling.

Mustaqil ta'lim shakllari	
Auditorida tashkil etiladigan mustaqil ta'lim	Auditoridan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta'lim

**2-topshiriq.** Talabalarning mustaqil ta'limi funksiyalarini mazmunini bayon eting.

Mustaqil ta'lim funksiyalari		
	Funksiyalari	Mazmuni
1.	Rivojlantiruvchi	
2.	Motivatsion	
3.	O'quv-axborotli	
4.	Tarbiyaviy	

**3-topshiriq.** Talabalarning mustaqil ta'limi tiplarini mazmunini bayon eting.

Mustaqil ta'lim tiplari	
Yakka tartibdagi mustaqil ta'lim	Jamoaviy mustaqil ta'lim

**4-topshiriq.** Talabalarning ijodiy izlanishlari mazmunini bayon eting.

№	Talabalarning ijodiy izlanishlari	Mazmuni
1	Matnlashtirish (konspekt)	
2.	Referat tayyorlash	



3.	Ilmiy tezis (maqola) tayyorlash	
4.	Bibliografik ma'lumotnoma (spravochnik)	
5.	Kurs ishi	
6.	Bitiruv ishlari (Magistrlik dissertatsiyasi)	
...		

### Mashg'ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

## 6-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU: Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishda vitagen tajribalardan foydalanish**

(2 soat).

**Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishda vitagen tajribalardan foydalanish malakalarini rivojlantirish.

**O'quv va moddiy ta'minot:** *kompyuter va videoproektor; tarqatma material, mashg'ulotga tegishli prezentatsiya slaydlari.*

**Tinglovchilar uchun ma'lumot.** Kompetentli va kreativ yondashuvga asoslangan ta'lim tizimida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining roli ham o'zgaradi. Chunki, «bilimli» yondashuvda ta'lim beruvchi faol va asosiy ishtirokchi bo'lsa, ta'lim oluvchi esa, sust qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. «Kompetentli» yondashuvda ta'lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta'lim olish faoliyati ko'proq mustaqil individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg'ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo'ladi.

**1-topshiriq.** Talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlarini bajaring.

№	Talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	O'quv topshiriqlarining javoblari
	<b>Ma'ruza matnini diqqat bilan o'qib quyidagi savollarga javob toping:</b>	



1.	“Kompetentlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?	
2.	Kasbiy kompetentlik nima?	
3.	Kompetentlik qanday holatlarda namoyon bo’ladi?	
4.	Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?	
5.	Ijtimoiy kompetentlik deganda nimani tushunasiz?	
6.	Maxsus kompetentlik negizida qanday kompetentliklar ko’zga tashlanadi?	
7.	Psixologik kompetentlikning mohiyati nimadan iborat?	
8.	Metodik kompetentlikda qanday jihatlar aks etadi?	
9.	“Informatsion kompetentlik” deganda nimani tushunasiz?	
10.	Kreativ kompetentlik nima?	
11.	Innovatsion kompetentlikning o’ziga xos jihatlari nimalarda ko’rinadi?	
12.	Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik qanday ahamiyat kasb etadi?	
13.	“Shaxsiy kompetentlik” tushunchasi Siz uchun qanday ma’noni anglatadi?	
14.	Pedagogik kompetentlik nima?	

**Tinglovchilar uchun ma’lumot.** Keyingi yillarda pedagogika sohasida “kompetentli”, “kompetensiya”, “kompetentlilik”, “kreativ”, “kreativlik” tushunchalaridan tez-tez foydalanilmoqda. Bu ta’lim mazmunini isloh qilish zarurati bilan uzviy bog‘liq.

**2-topshiriq.** Atamalar raqamini ularning ta’rifi bilan juftlang:

1.	Kreativlik	A	1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma’lumotlarga e’tiborsiz bo’lmaslik; 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish
2.	Pedagogik kreativlik	B	individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil





			sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati
3.	Shaxs kreativligi	C	pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati
4.	Pedagogik imidj	D	pedagog va talaba, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o'rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi, o'zaro qarama-qarshilik
5.	Imidj	E	qarama-qarshi, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan kuchlar to'qnashuvi, ikki yoki undan ko'p taraflar orasida o'zaro kelishuvning yo'qligini, manfaatlar to'qnashuvini ifodalovchi ziddiyat
6.	Pedagogik nizo	F	"siymo", "timsol", "qiyofa" va "obraz" ma'nosini bildirsa, mazmunan "joziba", "maftunkorlik" ma'nosini anglatishga xizmat qiladi
7.	Nizo	G	pedagog ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan uning tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik, mutanosiblikni ifodalaydi

**Topshiriqni bajarish uchun ish qog'ozi:**

<b>Savol</b>	1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-
<b>Javob</b>	1-V	2-S	3-A	4-G	5-F	6-D	7-Ye


**Tinglovchilar uchun ma'lumot.** Xorijiy so'zlar lug'atida «kompetentlik» tushunchasi biror shaxs yoki muassasaning vakolati va huquqlari majmuasi yoki biror bir insonga tegishli ishlar, savollar majmuasi sifatida ta'riflangan. Fransuzcha «competent» so'zi kompetentli, vakolatli sifatida tarjima qilinadi. Inglizcha «competence» atamasida shaxsning sifati ma'nosi mavjud: kompetentlik - qobiliyat sifatida keltirilgan.

**3-topshiriq.** Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarni guruhlarda ajrating: 1) izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish; 2) malaka darajasini oshirib borish; 3) kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish; 4) ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish; 5) zamonaviy vosita; 6) texnika va texnologiyalardan foydalana olish; 7) favqulotda vaziyatlar; 8) pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish; 9) to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik; 10) psixologik kompetentlik; 11) metodik kompetentlik; 12) informatsion kompetentlik; 13) kreativ kompetentlik; 14) innovatsion kompetentli; 15) kommunikativ kompetentlik; 16) ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish



ko'nikma, malakalariga egalik; 17) kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:**



**Tinglovchilar uchun ma'lumot.** Kompetentlik - deganda ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlari tushuniladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

**4-topshiriq.** Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslarini



A.K.Markova va B.Nazarova bo'yicha ajrating:

<b>Pedagogik kompetentlik tarkibi</b>	<b>A.K.Markova</b>	<b>B.Nazarova</b>
Maxsus yoki kasbiy kompetentlik		
Ijtimoiy kompetentlik		
Shaxsiy kompetentlik		
Individual kompetentlik		
Autokompetentlik		
Ekstremal kasbiy kompetentlik		

**5- topshiriq. Pedagogik kreativlik sifatlarini ko'rsating**

<b>Pedagogik kreativ sifatleri</b>	<b>Pedagogning ularga egaligi</b>
1.	1.
2.	2.
3.	3.

**6-topshiriq. Bo'lajak pedagoglarda kreativlik namoyon bo'ladigan holatlarni ko'rsating**

<b>Holatlar</b>	<b>Kreativlik ko'rinishlari</b>
1. O'quv axborotlarini tanlashda	
2. O'quv topshiriqlarini tayyorlashda	
3. O'quv mashg'ulotini loyihalashda	



4. O'quv mashg'ulotini tashkil etishda	
5. Pedagogik muloqotni tashkil etishda	
6. O'z ustida ishlash (kasbiy bilimlarni boytish, hisobotlarni topshirish, o'quv manbalarini tayyorlash)da	
7. Ilmiy-tadqiqotni olib borish (ilmiy anjumanlarda ishtirok etish, tajriba ishlarini olib borish)da	

### Mashg'ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

### 7-AMALIY MASHG'ULOT:

**MAVZU: TALABALARNING O'ZLASHTIRGAN BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH.**

#### 1-topshiriq. Assisment

<b>TEST</b>	<b>Muammoli vaziyat:</b>
<p>Ma'ruzaning rivojlantiruvchi funksiyasi nimalardan iborat?</p> <p>a) talabalarni o'quv materialining asosiy jihatlariga e'tibor qaratishga imkon berish;</p> <p>b) talabalarda tinglash, idrok etish, munozarada ishtirok etish madaniyatini shakllantirish;</p> <p>v) talabalarda mantiqiy fikrlash,</p>	<p>Siz ishlaydigan OTMdagi bir nechta talabaga o'zingiz o'tayotgan fandan 1-semestr bo'yicha baho qo'ymadingiz. biroq o'quv yili yakunida jurnalda mazkur talabalarga baho qo'yilganining guvohi bo'ldingiz. Siz o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosariga uchrashdingiz. O'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari ularga bahoni guruh rahbari qo'yib yuborganini aytdi. Mazkur vaziyatda siz</p>



<p>xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish.</p>	<p>qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?</p>
<p style="text-align: center;"><b>SIMPTOM:</b></p> <p>Ta'limni tashkil etishning individual tizimi....</p> <p>Sinf-dars tizimi....</p> <p>Ta'limning ma'ruza-seminar tizimi....</p>	<p style="text-align: center;"><b>Bilimlarni qo'llay olish:</b></p> <p>Ta'limni tashkil etish turlaridan qaysi biri ko'proq samarali hisoblanadi. Fikrlaringizni asoslab bering.</p>

**2-topshiriq. Talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash bo'yicha chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi**

- 1) og'zaki; 2) test; 3) uy vazifasi; 4) ommaviy; 5) o'z-o'zini nazorat qilish; 6) yozma; 7) individual; 8) amaliy; 9) joriy; 10) aralash; 11) oraliq; 12) guruhli; 13) yakuniy

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

- 1) chalkashtirilgan holda berilgan ta'lim metodlari bilan tanishing;
- 2) metodlarni jadvalda ko'rsatilganidek, mos ustunga yozib chiqing.

Tinglovchilarga ish varog'i

Nazorat turlari	Nazorat shakllari	Nazorat metodlari

**3-topshiriq. Talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash doir amaliy topshiriqlar**

Quyidagi masalalar bilan tanishing va ularning echimini toping.





**1-masala.** Talaba "Pedagogikaning asosiy kategoriyalari" haqida gapirayapti. Asosiy kategoriyalarni sanadi, lekin ularni to'liq aytib bera olmayapti. O'qituvchining yordamchi savollariga ehtiyoj sezdi. O'qituvchining savollari yordamida xatolarni to'g'rilay oldi. Unga nechchi baho qo'yish mumkin?

**2-masala.** Talabadan o'z yozma ishida metod va usul tushunchalarining mohiyatini ochib berish so'raldi. Talaba o'z yozma ishida metod va usul tushunchalariga to'g'ri ta'rif bergan. Quyidagicha misol keltirgan: "ma'ruza –bu metod. Mavzuni aniqlash rejasini tuzish, ularni bayon etish, umumlashtirib xulosalash esa usullari bo'la oladi". Talabaning yozma ishini baholang.

**3-masala.** Talaba og'zaki metodlarni sanab bera oldi. Lekin ularning mohiyatini ochib bera olmadi. biroq harbiriga misol keltira oldi. Unga qanday baho qo'ysa bo'ladi?

**4-masala.** Talaba pedagogika fanidan seminarni to'liq va to'g'ri yozib kelgan. Lekin o'qituvchi savol berganida daftardan javobni o'qib berayapti. Unga "4"ball qo'ysa bo'ladimi?

**5-masala.** Mutaxassislik fanidan biror mavzuni tanlab oling hamda mazkur mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

#### 4- topshiriq. Keys topshiriqlari

**Keys bayoni 1.** Zamonaviy Yevropada yagona kasbiy ta'lim makonini yaratish zamonaviy o'qitishning eng muhim talabi deya e'tirof etildi. Ana shu maqsadda Bolonya jarayoni tashkil etildi. Bu jarayon yagona Yevropa oliy ta'limi makonini yaratish maqsadida Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim tizimining bir-biriga yaqinlashishi va o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlovchi jarayon sanaladi. 1999 yilning 19 iyunida Yevropaning 29 mamlakati vakillari ishtirokida Bolonya deklaratsiyasi imzolandi. Unga ko'ra keng ko'lamda talabalar almashinuvini qo'llab-quvvatlash uchun Yevropa sinov birliklari (kredit) tizimi (ESBT) joriy etildi. "Kredit" atamasi (ESTS-credit) – "sinovdan o'tdi" ma'nosini anglatib, talabaning o'quv yurtida ma'lum bir kurs (modul)ni muvaffaqiyatli yakunlaganligi to'g'risida ma'lumot beradi.

**Keys savoli:** kredit (sinov birligi) nima anglatadi: ma'lum o'quv fani (moduli)ni o'zlashtirish va sinovlarni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinishda topshirish mumkinliginimi yoki ma'lum o'quv fanini talabaga yuklatiladigan yuklanma hajmi (mehnat sarfi)dan kelib chiqqan holda modul (blok – qism) holda o'zlashtirish va har bir modul (qism) o'zlashtirilgandan so'ng sinovdan o'tish zarurliginimi?

**O'qituvchining javobi.** Kredit ma'lum o'quv fani (moduli)ni o'zlashtirish va sinovlarni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinishda topshirishni anglatmaydi. Aksincha, kredit har bir o'quv fanining umumiy hajmi, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar (nazariy mashg'ulotlarga nisbatan amaliy



mashg'ulot va mustaqil ta'lim soatlarining ko'pligi), bir so'z bilan aytganda, talabning mehnat sarfidan kelib chiqib ajratiladi. Kredit – o'quv fanini o'zlashtirish va sinovlarni topshirish uchun birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinish emas. Balki bir o'quv fani uchun ajratilgan umumiy soatni bir necha modul (blok – qism)ga ajratgan holda o'zlashtirish va sinov topshirib borish deganidir.

**Keys bayoni 2.** Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida vebinar texnologiyalar tobora keng qo'llanilmoqda. "Vebinar texnologiyalar" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("webinar" – web-based seminar) web-texnologiyalari va an'anaviy ta'limning o'zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminarni anglatadi. Biroq, keng ma'noda web-texnologiyalari yordamida tashkil etiladigan nafaqat seminarni, balki turli onlayn tadbirlar (seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, ayrim holatlarda trening, turli hodisalar bo'yicha tarmoq translyatsiyalari (kompyuter yoki Internet tarmog'ida namoyish etiladigan lavhalar)ni yoritishga ham xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtni va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta'lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud. Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish, bir qator shart va qoidalarga rioya etish talab qilinadi.

**Keys savoli:** ko'pchilikning fikricha vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minotiga bog'liq. Bu fikr qanchalik to'g'ri.

**O'qituvchining javobi:** vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minoti ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, boshqa turdagi darslar kabi vebinar darslarning sifat hamda samaradorligi ularning metodik jihatdan tashkil etilishiga bog'liq. Tashkiliy- texnologik masalalar, ya'ni vebinar darsining Internet tarmog'igi orqali talaba, tinglovchilarga uzatib berilishining hal qilinishigina vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minoti bilan bog'liq. Bordinyu, vebinar darslarining translyatsiyasi juda sifatli bo'lgani holda kutilgan ta'limiy natija qo'lga kiritilmasa, u holda o'quv mashg'uloti pedagog tomonidan samarali, sifatli tashkil etilmagan bo'ladi.

### **Mashg'ulotning yakuni**

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.



V. GLOSSARIY.

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha
<p><b>Avtoleksiya</b> – o'z faoliyatining natijalarini mustaqil bayon eta olish ko'nikmasi. Pedagogikadagi A. - bu Ya.A.Komenskiyning "Maktabning labirintidan chiqish" asarining to'rtinchi bosqichi. U <b>tabiat</b> va tarbiyaning birligi qonuniyatiga asoslanib, o'z mehnatining natijalarini mustaqil bayon qilish ko'nikmasini anglatadi.</p>	<p><b>Avtoleksiya</b> – умение самостоятельно излагать результаты своей деятельности. А. в педагогике-это четвертая стадия обучения, указанная в произведении "Выход из школьных лабиринтов" Я.А.Комenskogo. Она основана на единстве законов природы и воспитания, которые означают умение самостоятельно рассказывать о результатах своего труда.</p>	<p><b>Self-lecture</b> is the ability to express the results of one's activity independently. А. in pedagogy - this is the fourth stage of training, indicated in the work "Exit from school labyrinths" by YA Komenko. It is based on the unity of the laws of nature and upbringing, which means the ability to tell about the results of one's work independently.</p>
<p><b>Akademik qobiliyatlar</b>-muayyan ilm sohasiga mos qobiliyatlardir (matematikaga, fizikaga, biologiyaga, adabiyotgavah.k.)</p>	<p><b>Akademicheskie sposobnosti</b> - способности к соответствующей области наук (математике, физике, биологии, литературе и т.д.)</p>	<p><b>Academic abilities</b> - abilities to the corresponding field of science (mathematics, physics, biology, literature, etc.)</p>
<p><b>Aqliy iqtidorlik</b> – insonning o'z fikrlarini yangi talablarga ongli ravishda yo'naltirishga doir umumiy qobiliyati, yangi vaziyafalarni, yangi hayot sharoitlarini xal etishga moslashtirishi. Yangilikka bo'lgan yo'nalisholish</p>	<p><b>Umstvennaya odaryonnost</b> - общая способность человека сознательно направить свое мышление на новые требования, приспособить его к решению новых задач и к новым условиям жизни.</p>	<p><b>Giftedness is mental</b> - the general ability of a person to consciously direct their thinking to new demands, to adapt it to solving new problems and to new conditions of life.</p>
<p><b>Aqliy hujum</b> (ingl. brain storming – miyaning to'foni) – amerikalik psixolog A.Osborn tomonidan tavsiya etilgan qiyin muammoni hal etishni hamkorlikda izlash yo'li orqali fikrlash jarayonini</p>	<p><b>Mozgovaya ataka</b> (ot angl. brainstorming - буря мозгов) - метод активизации мыслительных процессов путем совместного поиска решения трудной</p>	<p><b>Brainstorming</b> (brainstorming) is a method of activating thought processes through the joint search for a solution to a difficult problem,</p>



faollashtiruvchi metod..	проблемы, предложенные американским психологом А.Осборном.	proposed by the American psychologist A. Osborn.
<b>Kompetentlik</b> (lot. competens; ingl. competence – loyqlik) – bu 1) insonning muayyan mehnat vazifalarini bajarishga doir qobiliyat va ko‘nikmasiga ega bo‘lishi; 2) kasbning talablariga individual xarakteristika darajasining mos kelishi.	<b>Kompetentnost</b> (lat. competens; ot angl. competence – dostoiny) – eto 1) obladanie chelovekom sposobnostyu i umeniem vypolnyat opredelennye trudovye funktsii; 2) individualnaya xarakteristika stepeni sootvetstviya trebovaniyam professii.	<b>Competence</b> (Latin competens, from English competence - dostoinous) is 1) the possession of a person's ability and ability to perform certain labor functions; 2) an individual characteristic of the degree of compliance with the requirements of the profession.
<b>Kompetensiya</b> (lot. competere – mos kelish, loyiq) – hayot va faoliyatning turli sohalarida amaliy vazifalarni yechish uchun aniq va ziyatlarda bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni mobilizatsiya qilish qobiliyati.	<b>Kompetensiya</b> (ot lat. competere - sootvetstvovat, podxodit) – sposobnost mobilizovat znaniya, umeniya i sennosti v konkretnyx situatsiyax dlya resheniya prakticheskix zadach v razlichnyx sferax jizni i deyatelnosti.	<b>Competence</b> (from Latin competere - to match, approach) - the ability to mobilize knowledge, skills and values in specific situations to solve practical problems in various spheres of life and activity.
<b>Kommunikativ kompetentlik</b> – kommunikatsiyani erkin amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligini shakllantirish hamda rus, ona tili va chet tillarida muloqot qilish, zamonaviy kommunikatsiya vositalarini o‘zlashtirishdir	<b>Kommunikativnaya kompetensiya</b> - formirovanie sposobnosti i gotovnosti svobodno osushchestvlyat kommunikatsiyu i obshchenie na russkom, rodnom i inostrannykh yazykax, ovladenie sovremennymi sredstvami kommunikatsii	<b>Communicative competence</b> - the formation of the ability and willingness to freely communicate and communicate in Russian, native and foreign languages, mastering of modern means of communication
<b>Konseptual bilim</b> – yaxlit funksiyalash sifatida murakkab strukturalarda bazali elementlar bilan orasidagi bog‘liqlik: klassifikatsiya va	<b>Konseptualnoe znanie</b> - vzaimosvyazi meжду bazovymi elementami v bolee slojnoy strukture, kotorye pozvolyayut im	<b>Conceptual Knowledge is</b> - the relationship between the basic elements in a more complex structure



<p>kategoriyalarni bilish, prinsip va umumiy qoidalarni bilish, nazariyalarni, model vastrukturalarni bilish.</p>	<p>funksionirovat kak yedinoe seloe: znanie klassifikatsiy i kategoriy, znanie principov i obshix pravil, znanie teoriy, modeley i struktur.</p>	<p>that allows them to function as a single whole: knowledge of classifications and categories, knowledge of principles and general rules, knowledge of theories, models and structures.</p>
<p><b>Konseptual jadval</b> – bu taqqoslash, qiyoslash va boshqa jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etadigan grafik organayzer. K.t. vertikal chiziq bo'yicha taqqoslash uchun, gorizontal esa – taqqoslashishlari olib boriladigan turli tavsiflar joylashtiriladi</p>	<p><b>Konseptualnaya tablitsa</b> – eto graficheskiy organizator, kotoznye naglyadno predstavlyayut myslitelnye protsessy sravneniya, sopostavleniya i dr. V K.t. po vertikali raspolagaetsya to, chto podlejit sravneniyu, a po gorizontali - razlichnye xarakteristiki, po kotorym proizvoditsya sravnenie.</p>	<p><b>The conceptual table</b> is a graphic organizer, which visually represents the mental processes of comparison, comparison, etc. In Ct. On the vertical is located what is to be compared, and horizontally - the various characteristics by which the comparison is made.</p>
<p><b>Kreativ metodlar</b> – bu A.V.Xutorskiy tomonidan tavsiya etilgan produktiv ta'lim metodlari klassifikatsiyasining biri; bu tashqi va ichki ta'lim maxsulotlarini qurish metodidir. Ularga intuitiv, algoritmik va evristik metodlar kiradi.</p>	<p><b>Kreativnye metody</b> – eto odna iz klassifikatsii metodov produktivnogo obucheniya, predlojennoy A.V.Xutorskim; eto metody sozdaniya vneshnix i vnutrennix obrazovatelnyx produktov. K nim otnosyatsya intuitivnye, algoritmicheskie i evristicheskie metody.</p>	<p><b>Creative methods</b> - this is one of the classification of methods of productive learning, proposed by A. Khutorsky; these are methods of creating external and internal educational products. These include intuitive, algorithmic and heuristic methods.</p>
<p><b>Ko'nikmalar o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llarini</b> (usullarni, harakatlarini) egallash; inson tomonidan o'zlashtirilgan harakatlar.</p>	<p><b>Umeniya</b> - ovladenie sposobami (priemami, deystviyami) primeneniya usvoennyx znaniy na praktike; usvoennye chelovekom deystviya.</p>	<p><b>Skills</b> - mastering the methods (techniques, actions) of applying the acquired knowledge in practice; learned by man actions.</p>
<p><b>Qobiliyatlar</b> – bu u yoki bu</p>	<p><b>Sposobnosti</b> - eto svoystvo</p>	<p><b>Abilities</b> are a property</p>





<p>mahsuldor faoliyatni samarali bajarishning sharti hisoblanadigan shaxsning individual-psixol.xususiyati va sifati.</p>	<p>i individualno-psixol. osobennosti lichnosti, yavlyayushiesya usloviem uspeshnogo vypolneniya toy ili inoy produktivnoy deyatelnosti.</p>	<p>and an individual-psychol. characteristics of personality, which are the condition for the successful performance of a productive activity.</p>
<p><b>Madaniyat</b> (lot. cultura - ishlash, tarbiya, rivojlanish, hurmatqilish) – insonlarning hayoti va faoliyatining turli tip va shakllarda, ularnig o‘zaro munosabatlarida, shuningdek moddiy va ma’naviy qadriyatlarid aaks etadigan jamiyat rivojlanishining, insonning ijodiy kuchi va qobiliyatlarining tarixiy belgilangan darajasi.</p>	<p><b>Kultura</b> (ot lat. cultura - vozdelывание, воспитание, развитие, почитание) - istoricheski opredelennyy uroven razvitiya obshchestva, tvorcheskix sil i sposobnostey cheloveka, vyrajennyy v tipax i formax organizatsii jizni i deyatelnosti lyudey, v ix vzaimootnosheniyax, a takje v sozdavaemyx imi materialnyx i dukhovnyx sennostyax.</p>	<p><b>Culture</b> (from the Latin cultura - cultivation, upbringing, development, veneration) is a historically determined level of development of society, the creative forces and abilities of man, expressed in the types and forms of organization of life and activity of people, in their mutual relations, and also in the material and spiritual values they create.</p>
<p><b>Maxorat</b> - 1) o‘zlashtirilgan bilim va xayotiy tajribalar asosida barcha amaliy xarakatlarni (shujumladan, dars berishni) shu soxada mavjud konun va kridalar asosida kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish; 2) texnologiyani amaliy loyiha konsepsiyasi fatida talab darajasida tadbiiq etish malakasi</p>	<p><b>Masterstvo</b> – 1) vypolnenie vsekh prakticheskix deystviy (v tom chisle provedenie uroka), opirayas na usvoennyye znaniya i jiznennyy opyt, na osnove sushchestvuyushix zakonov i pravil s minimalnym ispolzovaniem vremeni i sil; 2) umenie sootvetstvuyushim obrazom voplotit texnologiyu kak prakticheskii proekt konsepsii</p>	<p><b>Mastery</b> - 1) the implementation of all practical actions (including the conduct of the lesson), relying on the acquired knowledge and life experience, on the basis of existing laws and regulations with the minimum use of time and effort; 2) the ability to appropriately implement the technology as a practical project concept</p>
<p><b>Metod</b> (yunon. methodos – tadqiqot yoki bilish yo‘li) – aniq vazifani xal etishga</p>	<p><b>Metod</b> (ot grech. methodos - put issledovaniya ili poznaniya) - sovokupnost</p>	<p><b>The method</b> (from the Greek methodos - the path of exploration or</p>



<p>bo'ysindirilgan borliqni o'zlashtirishning amaliy yoki nazariy operatsiyalarning, nisbatan bir yo'nalishdagi usullarning majmui. Pedagogikada tarbiya va ta'lim metodlari hamda ularning klassifikatsiyalarini ishlab chiqishdir;</p>	<p>otnositelno odnorodnyx priemov, operatsiy prakticheskogo ili teoreticheskogo osvoeniya deystvitelnosti, podchinennyx resheniyu konkretnoy zadachi. V pedagogike problema razrabotki metodov vospitaniya i obucheniya i ix klassifikatsii; vystupaet kak odna iz osnovnyx sposobov sovmestnoy deyatel'nosti uchitelya i obuchaemogo s selyu resheniya zadach</p>	<p>cognition) is a collection of relatively homogeneous techniques, operations of practical or theoretical development of reality, subordinated to the solution of a specific task. In pedagogy, the problem of developing methods of education and training and their classification; Acts as one of the main ways of joint activity of the teacher and student with the aim of solving problems</p>
--	--	---



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi “O‘qituvchi va murabbiylar–yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”. Xalq so‘zi gazetasi 2020 yil 1 oktyabr, №207 (7709).
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr



“Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 797-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4623-sonli qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

19. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKSS Press, 2016. — 116 s.

20. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

21. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyax riskov sovremennogo obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.

22. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo’ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.

23. Ishmuhammedov R.J., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistalar, o’qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o’quv qo’llanma)-T.:2013.-279 b

24. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

25. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

26. Nikishina I.V. Innovatsionnaya deyatelnost sovremennogo pedagoga. Metodicheskoe posobie. – 2012. 76 s.

27. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO UrFU, 2017. – 128 s.

28. Sovremennye obrazovatelnye texnologii v uchebnom protsesse vuza: metodicheskoe posobie / avt.-sost. N. E. Kasatkina, T. K. Gradusova, T. A. Jukova, Ye. A. Kagakina, O. M. Kolupaeva, G. G. Solodova, I. V. Timonina; otv. red. N. E. Kasatkina. – Kemerovo: GOU «KRIRPO», 2011. – 237 s.

29. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.

### **IV. Internet saytlar**

30. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

31. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi



32. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
33. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet.
34. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi